

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**o‘zbek tili yo‘nalishi
14.40 – guruh talabasi
Diyora Abdujabborovanning**

**“SHAYTANAT” ASARINING LISONIY
XUSUSIYATLARI” mavzusidagi**

BITIRUV -MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: M.Hakimov

filologiya fanlari doktori, professor.

Farg‘ona – 2018.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I BOB. Tohir Malik qalamiga mansub “Shaytanat” asarining leksik hamda grammatik tahlili	7
--	----------

1.1. “Shaytanat” romani matnining fonetik va leksik tahlili	8
---	---

1.2. Asarda grammatik birliklar uslubiy vosita sifatida.....	26
--	----

II BOB . “Shaytanat” asarining sotsiolingvistik tadqiqi.....	39
---	-----------

2.1. “Shaytanat” asarida mafiya a’zolariga aylangan jinoyatchilar nutqining o’ziga xos xususiyatlari.	42
--	----

2.2. Asar matnida yozuvchi uslubining namoyon bo’lishi	49
--	----

UMUMIY XULOSA	59
----------------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	62
---	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi bundan chorak asr muqaddam mustaqil davlat sifatida shakllangandan beri ilm-fan, milliy madaniyatimizning har bir sohasida, ta'lim-tarbiya tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. "Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"¹, - deya ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov.

Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni-tarbiyalash – O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh, qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoni va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining hamda yurtimiz farovon kelajagining negizini tashkil etadi.

Tilshunoslik, xususan, o'zbek tilshunosligi hozirgi darajaga yetguncha uzoq tarixiy rivojlanishni bosib o'tdi. Tilshunoslik fani bosib o'tgan uzoq o'tmishga nazar tashlasak, o'zbek tili taraqqiyoti va takomillashuvining olis moziyga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Shu davr mobaynida boshqa sohalar singari o'zbek tilshunosligining barcha tarmoqlarida ilmiy izlanishlar olib borildi va fandagi yangiliklar hayotda tadbiq etilmoqda. Albatta, bugungi kunga kelib ham ushbu sohadagi erishilgan yutuqlarning son-sanog'i yo'q deya bimalol ta'kidlay olamiz. Yaratilayotgan keng imkoniyatlar eshigi ushbu sohada yanada yangi izlanish va tadqiqot olib borishga zamin yaratayotganini Muhtaram

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008, 86-б.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning quyidagi fikrlaridan ham bilishimiz mumkin:

“Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.

Bu salohiyatni yaratish va yanada ko‘paytirishda xurmatli ziyolilarimiz – ilm-fan va texnika namoyondalari, birinchi navbatda qadrli va xurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz”².

Bu e’tibor va imkoniyatlardan keng foydalangan holda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida kuzatilayotgan ko‘plab yangilik va izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganini alohida e’tirof etish lozim. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham adabiyotimizning durdona va o‘ziga xos janrga ega bo‘lgan asarlaridan biri – Tohir Malikning “Shaytanat” pentalogiyasini lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish masalasi yotadi. Ma’lumki, Tohir Malik ma’naviyatimiz xazinasiga o‘zining o‘tkir nutqi, tilimizning boy imkoniyatlarini hamda xalqimizning tilidagi o‘ziga xos xususiyatlarni mahorat bilan tasvirlab bera olgani bilan diqqatga sazovor adiblardandir. Uning “Shaytanat” asari matni asosida lingvistik omillarning u qadar ko‘p tadqiq etilmagani ishimizning dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tohir Malikning “Shaytanat” asarini leksik-grammatik tahlil etgan holda unda badiiy nutq vositalarini va til vositasining ijtimoiy guruhlardagi badiiy ifodasini o‘rganish hamda badiiy nutq vositalarining sotsial xoslanganligini tahlil etish ishning asosiy maqsadini tashkil qiladi. Mazkur maqsadga erishish uchun til va jamiyat munosabati, badiiy asarda

² Шавкат Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2016, 13-бет.

sotsiolingvistik omillarning o'rne, iste'mol doirasi chegaralangan so'zlarning badiiy ta'sirchanligi hamda hayotiy haqiqatga yaqinligini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatishni o'z oldimizga vazifa sifatida belgilaymiz.

Tadqiqot metodi. Ishni yaratishda so'nggi yillarda yaratilgan tilshunoslikka oid dissertatsiyalar, avtoreferatlardan keng va ijodiy yondashgan holda foydalanildi hamda turli sotsiolingvistik, qiyosiy, tavsifiy, tasnifiy, analitik metodlardan foydalanildi.

Ishning obyekti va predmeti. Xalqimizning sevimli adibi Tohir Malikning "Shaytanat" romani mavzu tadqiqida material vazifasini o'taydi. "Shaytanat" romanlaridagi shakliy-uslubiy individuallikning namoyon bo'lishi tadqiqot predmetini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tohir Malikning yaratgan turli xarakterdagi asarlari adabiyotshunoslar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan. Bu o'rinda M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, H.Karimov, I.G'ofurov, S.Mirzayev, H.Umurov, Bahodir Karim, Ulug'bek Hamdam kabi nazariyotchi olimlarning adib ijodi haqidagi nazariy qarashlariga asoslangan holda mulohazalar yuritishganini aytib o'tish joiz. Shuningdek, Andijon, Samarqand, Toshkent shaharlaridagi ko'plab oliy o'quv yurtlarining bitiruvchi bakalavr va magistr talabalari tomonidan keng tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbig'i. Tadqiqotda chiqarilgan xulosalardan umumta'lim maktablarida, litsey va kollejlarda universitetning filologiya fakultetlarida "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Badiiy matn tahlili", "Matn tilshunosligi", "Sotsiolingvistika" kabi fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqotda taqdim etilgan kuzatish va umumlashmalar badiiy matn nutqining sotsial jihatdan xoslanishi yuzasidan kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar samaradorligiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb umid qilamiz.

Tadqiqotning tuzilishi va tarkibi. Bitiruv malakaviy ish o`z oldiga qo`ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini o`z ichiga oladi.

I BOB. TOHIR MALIK QALAMIGA MANSUB “SHAYTANAT” ASARINING LEKSIK HAMDA GRAMMATIK TADQIQI.

Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan boʻlmish tilshunoslik necha oʻn asrlardiki, til deyiladigan tilsimning tabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yoʻlida tinimsiz izlanadi. Qadimgi dunyoning barcha tilshunoslik maktablarida yaratilgan jaʼmiki ilmiy izlanishlar keyinchalik shakllangan Yevropa lingvistikasiga tamal toshining qoʻyilishiga asos boʻlgan. Mustaqillik sharofati bilan taʼlim mazmuni va usulini yangilash, oʻzbek tili grammatik qurilishi talqinini rus grammatikasi asoratidan xoli qilish umumxalq va davlat ahamiyatiga molik ishga aylandi. Ayniqsa, 1997-yili Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi toʻqqizinchi sessiyasida “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” qabul qilinishi ona tili taʼlimida ham tez orada oʻz samarasini berdi. Uzlüksiz taʼlimning yangi tizimi boʻyicha qator ishlar amalga oshirildi. Oʻzbek tilshunosligi ham oʻzining milliy tabiatidan kelib chiqqan holda tadqiq qilinib, qator yutuqlarni qoʻlga kiritdi. Shunday boʻlsa-da, yangi oʻzbek tilshunosligining shakllanishi hamda taraqqiy etishida olis Sharq va Gʻarb tilshunosligining ham ahamiyati katta boʻldi. Shu bilan birga istiqbol davri oʻzbek tilshunosligida ham mazkur maktab vakillari yondashgan ilmiy qarashlardan qimmatli manba sifatida hozirgacha ham foydalanib kelinmoqda-ki, buni inkor etishning iloji yoʻq.

Insoniyat hayotini kommunikativ faoliyatsiz, yaʼni bir-birlari bilan til orqali oʻzaro munosabatsiz tasavvur qilish qiyin. Shaxsning belgisi sifatida uni xarakterlovchi yoshi, jinsi, maʼlumoti, kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi, hududi, hamda millatidan qatʼiy nazar, qanday boʻlmasin, biz doim, biror narsani bilishga va bilib olgan narsalarimizni asrab- avaylashga, yodda saqlab qolishga urinamiz. Boshqacha qilib aytganda, til vositasida aktiv kommunikativ (aloqa) faoliyat bilan shugʻullanamiz. Kommunikativ faoliyatning ayrim aspektlari yoki koʻrinishlari koʻpincha avtomatik tarzda namoyon boʻlsa, ayrimlari maxsus

o'rganish, ta'lim prosessida o'zlashtiriladi. So'z san'atiga o'rgatish, juda ko'p mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan amalga oshiriladi.

«Tilning estetik vazifasi tinglovchida his – tuyg'ularni qo'zg'atishga xizmat qiladigan vazifadir»³. Badiiy nutq stilistikasi, ya'ni uslubi uchun muallif tomonidan ishlayotgan til vosita va to'qimalarning o'ziga xosligi, individualligini hamda ularni qay yo'sinda namoyon bo'lishi muhimdir. Matnning lingvistikasi uchun esa, matnni tashkil etuvchi kategoriyalar va ularning tarkibi hamda bu kategoriyalarni matn ichidagi o'zaro hamkorligi va ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, matnning tipologiyasini yaratish, qolaversa, bu tipologiya ichida badiiy matnni o'rnini aniqlash kabi masalalar muhimdir. Matn tilshunoslik, umuman filologiya fanining tekshirish ob'ekti sanaladi. Matnning badiiyligini ta'minlovchi vositalarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Lisoniy (lingvistik) vositalar;
2. Nolisoniy (ekstralingvistik) vositalar.

Lingvistik vositalarga fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarni kiritish mumkin. Bir matn tilshunoslik fani nuqtai-nazaridan tekshirilar ekan, diqqat adabiy til yaruslari - leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklaridan qay darajada foydalanganliklariga qaratiladi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa matnning janr xususiyatlari shakl va mazmun, syujet va kompozisiya, uslub va uslubiy vositalardan foydalangan holda, matnda davr ruhini obrazlar va til shakllari vositasida qanday aks ettirilganligi tahlil qilinadi.

1.1. “Shaytanat” romani matnining fonetik va leksik tahlili.

Adabiy asarning abadiy asar darajasiga ko'tarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

³ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т. 2007. 42-б.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san'ati bilan bog'liq bo'lmagan ravishda, so'zning, so'zdagi harflarning talaffuzi bilan bog'liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbai bo'lgan edi. Ular so'z tarkibiga singib o'ziga xos ma'no va ohang kasb etib ulgurmagan tovushlarga ham o'zgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, «r» – tezlikning, shiddatning ramzi, «l» - viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi, «i» - torning, «a» - kattaning, «e» - abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar «u», «d», «r»- tovushlari dahshatni yodga solishi, «i» -xursandchilikning, «m», «n», «l»- tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan.

Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Yozuvchi Tohir Malik ham qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalangan.

1. Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho‘zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho‘zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining meyordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta’kidlanadi: *“Shiri-in gaplashib o’tiringlar. ...Shu bolamning bolasini bi-ir o’pib, keyin o’lsam, armonsiz ketardim.”* (I kitob, 114-b.); *“Yo’-o’q... so’ysam ham o’zlaringning pichoqlaringda so’yaman, bu pichoqni harom qilmayman.”* (V kitob, 666-b.); *“Xa-a... shunaqa deyishi aniq!”* (V kitob, 636-b.).

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi: *“Ee-zvoring-a, ezzvoring...-dedi Kesakpolvon.”* (III kitob, 703-b).

2. Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik meyor bo‘yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo‘lgan so‘zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So‘zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, xursandlik, taajjub kabilar) va maqsadini kitobxonga “aynan” yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me’yordan ortiqqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyligi (bir onda ro‘y berganligi), takroriyliigi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma’nolar ifodalangan bo‘ladi: *“Iy-ya, -dedi Kesakpolvon ajablanib, - yemasangiz, nega isrof qilasiz?”* (III kitob, 703-bet); *“Ob-bo... -dedi Kesakpolvon norozi ohangda, - odam deganni ez-zib, qon qilib yuborasizmi, a?”* (III kitob, 704-bet); *“Avval kimligini bilib, keyin kelmaysanmi, s-so’tak!”* (III kitob, 716-b.); *“Erkakning xo’r-rozi “Napoleon”dan ichadi-da.”* (IV kitob, 115-b.). Ta’kidni kuchaytirish ma’nosida ham undosh tovushlarning birdan ortiq yozilganini ko’ramiz: *“Sen san’atni tushunarmiding, sen ishqiy yo’q eshshak, dardi yo’q kessaksan.”* (V kitob, 612-b.), *“Toz-za suqlanib qaragan ekansanda, a?”* (V kitob, 663-b.).

3. So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Og‘zaki nutqda turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar, asosan, o‘zlashma so‘zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud.

Bunday xato soʻzlovchining oʻzlashgan soʻz imlosini toʻgʻri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. Badiiy asarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani ogʻzaki - jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi: *“Istansada yotsangiz mumkin”* (III kitob, 758-b.), *“Sen milisa, meni laqillatma.”* (IV kitob, 131-b.); *“Shaharda moshin koʻp, aspal yoʻl koʻp, quyosh qizdirib tashlaydi dib eshituvdim.”* (V kitob, 661-b.); *“Telponing kimga kerak?”* (IV kitob, 381-b.). Ayrim oʻrinlarda kulgi qoʻzgʻatish maqsadida ham soʻzlar atayin buzib talaffuz qilinadi va oʻsha tarzda yoziladi.

Til va yozuvchi oʻrtasidagi munosabatni shaxmat va shaxmatchi oʻrtasidagi munosabatga qiyoslash mumkin. Shahmatda har bir donaning mavqei, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarni tugal egallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qiladi, betakror kombinatsiyalar yaratadiki, bu unga raqibini magʻlub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning oʻz vazifasi, maʼno doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bogʻlanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar boʻlgan, badiiy didi, soʻz sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, soʻz chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat gʻoyasi, balki goʻzal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik maʼnolar hal qiluvchi rol oʻynaydi. Soʻz qoʻllashning sanʼat darajasida yoki sanʼat darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, soʻz, uning maʼnosi va bu maʼnoning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, soʻzning qoʻllanishi bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadigan qoʻshimcha maʼno nozikliklari, mazmun oʻzgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo taʼkidlash joizki, bunday qoʻshimcha maʼno nozikliklari aksar hollarda, avvalo, soʻz maʼno qurilishining

o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi.

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihatini tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N.Teliya ta'rificha, "konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy – baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat"⁴dir. Konnotatsiya, ta'rifidan ko'rinib turganiday, so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo'lgan jihatdir. Masalan, yuz, bet, chehra, ruxsor, aft, bashara, turq kabi so'zlar qatoridan tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtai nazarga muvofiq'ini tanlash so'zlovchining o'ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma'lum. V.N.Teliya ta'kidlaganidek, bunday so'zlar semantikasida "so'zlovchining ifodalanmishga bo'lgan munosabati haqidagi informatsiya kodlashtirib qo'yilgan bo'ladi va jumla qurilar ekan, xuddi siqilgan prujina qo'yib yuborilganiday, bu informatsiya darhol ishga tushadi", demak, lug'at birliklari faqat nominativ faoliyat uchungina emas, balki pragmatik faoliyat uchun tayyor material bo'lishi mumkin. Tadqiqotchi ayni shu o'rinda ana shu mulohazalarga asoslangan holda so'zning semantik qurilishida nominativ jihatga qo'shimcha konnotativ jihatning bo'lishi nutqiy tejamkorlik uchun yordam berishini ham ta'kidlaydi. V.N.Teliya so'zning leksik ma'nosini, kamida, uch makrouzvning kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi:

- 1) ma'noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi;
- 2) kategorial-grammatik uzvi;
- 3) nutq subyektining so'z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi. Ana shu uchinchi uzv ekspressiv bo'yoq, uslubi bo'yoq, emotsional bo'yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarni

⁴ В.Н.Телия. «Коннотативная аспект семантики номинативных единиц» - М., Наука, 1986, ст.78.

umumlashtiruvchi konnotativ ma'nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o'zbek tilshunosligida ham ancha keng ochib berilgan. Masalan, «O'zbek tili leksikologiyasi» kitobida so'z narsa-hodisani ifodalashi barobarida ko'pincha shu narsa-hodisaga so'zlovchining subyektiv munosabatini ham anglatishi alohida ta'kidlangan: «...Lug'at sostavidagi so'zlarni kuzatish ularning ba'zilar biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so'zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o'z bahosini, munosabatini ifodalanishini ham ko'rsatadi. Bu munosabat doirasiga g'azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko'rinishlari kiradi. Xususan, azamat, o'ktam, qoyilmaqom, so'liqildoq, boplamoq, olchoq, mal'un, razil, satang, sanqi, asfalasofilin, miyanqi, qoyil, do'ndirma, momoqaymoq kabi so'zlar, ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, so'zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi. Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional - ekspressiv leksika, ekspressiv - stilistik leksika terminlari ostida o'rganilmoqda».

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

Biz "Shaytanat" qissasini badiiy matnnining eng yuqori namunasi, deb ta'kidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun-qoidalariga monand ravishda ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga

oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yoʻnaltirilganligi izohlanadi. Biz “Shaytanat”da eng koʻp uchraydigan leksik birliklarni shu guruhlar boʻyicha ajratamiz va asarda oʻziga xos vazifa bajarganini dalillashga harakat qilamiz.

Maʼnodosh soʻzlar. Maʼnodosh soʻzlar tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi oʻziga xos vositadir. Tilda maʼnodosh soʻzlarning koʻp boʻlishi tilning estetik vazifasini yana-da toʻliq bajara olishini osonlashtiradi. Oʻzbek tili maʼnodosh soʻzlarga juda boy. Adib tilimizdagi maʼnodosh soʻzlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladi, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real koʻrsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi maʼnodosh soʻzlar tahlilida, asosan, ikki jihatga eʼtiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq maʼnodosh soʻzdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi boʻlsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq maʼnodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uygʻun holda qoʻllashi masalasidir. Tilshunoslikda maʼnodoshlikning uch turi farqlanadi:

- 1) leksik maʼnodoshlik;
- 2) frazeologik maʼnodoshlik;
- 3) leksik-frazeologik maʼnodoshlik.

Leksik maʼnodoshlikdan bir necha maqsadlarda foydalaniladi. Tohir Malik qalamining oʻtkiriligiga sabab shundaki, u badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh boʻlmagan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydiki, bu soʻzlar qissada xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, matnda juda koʻplab salbiy maʼno ottenkasiga ega soʻzlar qoʻllanib, ularning sinonimik qatori kengaytirilishiga muvaffaq boʻlishga erishgan. Masalan: *“Bunaqa mayda ishlarni bajaruvchi mayda odamlarimiz yetarli, - Said Qodirov shunday deb ayyorona koʻz qisib qoʻydi”.* (V kitob, 294-b.); *“-Yur, dedi Kesakpolvon Gʻilayga, - bir narsa deb qoʻy.”* (III kitob, 142- b.) Misollarda

“ko`z qismoq”, “bir narsa deb qo`yish” leksik birliklarida erkaklikni ifodalovchi ma`no qirralarini ko`rish mumkin. Birgina *“o`ldirish”* fe`lining bir qancha salbiy ottenkalari qo`llangan sinonimik qatorni bu asarda uchratishimiz mumkin: *“jo`natib yuborish” (jo`nab qolish) – “Sal aynisa, Hosil akasining izidan jo`natvor.”*, *“Yangi xo`jayinga tobing bormi yo eskisini orqasidan jiydaxaltangni ko`tarib jo`nab qolasanmi?”* (III kitob, 613-b); *“gum qilish”, “yo`qotish”, “qazo topmoq”- “Dushmanning qo`lidan qazo topmoq ham bir baxt, azizim.”* (II kitob, 511-b); *“asfalasofinga jo`natish” – “G`ilay “Patsanning o`zini asfalasofilinga jo`natmay tag`in!” demoqchi bo`ldi-yu, tilini tiydi.* (III k, 659-b). Quyidagi parchada ham ma`nodosh so`zlarni uchratishimiz mumkin: *“Uning huzuriga turli yumush bilan turli toifa odam kelib turadi. Bular orasida muloyimlari ham, bezbetlari ham, shirinso`zlari ham, to`nkamijozlari ham bo`lardi.”* (III kitob, 627-b); *“Saba shahri ayni paytda juda ulug`, bahaybat, azamat shahar edi.”* (V kitob, 672-b.).

Frazeologik ma`nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, aniq va to`la gavdalandirishda frazeologik iboralarning ma`nodoshligidan keng foydalaniladi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko`zi o`ngida aniq va to`la gavdalandirishda frazeologik iboralarning ma`nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo`lmoq – sabr kosasi to`lmoq, burni ko`tarilmoq – dimog`i shishmoq, yaxshi ko`rmoq – ko`ngil bermiq, ikki oyog`ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og`ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma`nodoshlikka misol bo`ladi. Jumla tarkibida kelgan ma`nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, iker-chikirigacha ko`rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Asardagi misollarga e`tibor beramiz: *“Osonlik bilan jon beradigan axmoq yo`q!”* (III kitob, 143-b.); *“Men nima uchun yashadim-u, nima maqsadda bu chirkin barglarni to`pladim.”* (V kitob, 295-b.).

Leksik-frazeologik ma`nodoshlik. Lug`aviy birlik sifatida frazeologizmlar so`zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo`la oladi. Masalan: Xursand – og`zi qulog`ida, g`azablanmoq – jahli chiqmoq, beg`am – dunyoni suv bossa

to'pig'iga chiqmaydi kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Masalan, *“Mahmud akamning seyflari buzilib qolganida ochib bergan edi. Qo'li gul usta. - Bunaqa qo'li gullarning xaridorlari serob bo'ladi .”* (V kitob, 131-b.); *“Bu yerga bosh egib kelishga majbur etgan Anvarni so'kdi.”* (II kitob, 178-b.). Matnda *“qo'li gul”*, *“xaridor”* hamda *“bosh egib”* kabi ma'nodosh so'zlar qo'llanilgan.

Shakldosh so'zlar. Tilimizda tovush (yozuvda grafik) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Bunday so'zlar omonimlar deb ataladi. Tilshunoslikda omonimiyaning uch ko'rinishi mavjudligi ta'kidlanadi: omoleksema, omograf va omofonlar. Shakldosh so'zlar asosida yuzaga keladigan ohangdoshlikdan badiiy asarda alohida uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, *“Omil to'nka ham tanishtirib qo'ymadi.”* (II kitob, 178-b.). Ushbu gapda *“to'nka”* shakldosh so'zi gapdan anglashiluvchi ma'noga o'ziga xos vazifa yuklaydi.

Zid ma'noli so'zlar. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. «Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi.» Yevropa filologik an'anasida bu san'at «antiteza» deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Misol uchun, *“Shaytanat”*da quyidagicha zid ma'noli so'zlarni uchratamiz: *“Bu qanday tosh – gunohlar toshimi yoki mas'uliyatmi, bilmadi.”* (III kitob, 187-b.). Matnda qo'llangan *“gunohlar toshi”* va *“mas'uliyat”* so'zlari o'zaro ma'no jihatdan zid so'zlar qatorini tashkil qilmasa-da, adib ularni ayni

shu matnda tergovchining tilidan zid ma'noli juftlikka aylantira olgan. Ba'zan mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zni boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'zga birdaniga zidlantiradilar. Yana bir misol keltiramiz. Matnda kontekstual antonimlar berilgani uchun bir abzasni to'liq berishga qaror qildik: *“Zaynab shu hovlida Kumush bo'lib yashagan edi, xayolidagi Otabegi uni shu hovlida quchgan, yanog'idan bo'sa olgan edi... Endi nazarida bu hovlidan nur qochgan, g'unchalari to'lib erta-indin ko'z ochaman deb turgan atirgullar ham xunuk, marmar favvora ham o'lik... Quyosh bor-u, fayz yo`q, xonadon qorong`u. Xonalarda hayot kezib yuribdi, ammo baxt yo`q.”* (I kitob, 350-b.). Mazkur parchada keltirilgan *“Zaynab”* va *“Kumush”*, *“atirgul”* va *“xunuk”*, *“favvora”* va *“o'lik”*, *“quyosh”* va *“qorong`u”*, *“hayot”* va *“baxt yo`q”* kabi lug'aviy birliklar mahorat bilan zidlikni hosil qilishiga erishilgan. Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan: *“Zelixon Elchindan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to'playotgan ekan...”* (I kitob, 128-b.) yoki *“Serxasham uyda sertashvish yashagandan ko'ra, qamishtomli uyda baxtli hayot kechirish ming marta afzal.”* (V kitob, 620-b.) parchasida *“serxasham”* so'ziga *“qamishtoml”*i so'zini zidlay olgan. Yuqoridagi parchada esa *“mushtdek”* va *“qoyadek”* so'zlari *“kichik”* va *“katta”* ma'nolari bilan antonimik munosabatga kirishgan, shuningdek, asarda Tohir Malik mashxur *“O'tkan kunlar”* romanidagi Kumushbibiga o'z asari qahramoni Zaynab yaratgan obraz Tuproqbibini zidlantirgan: *“Yoshlik sururi tuproqqa qorilgan, Kumushbibi emas, “Tuproqbibi” “martabasi”ga yetgan juvon endi bolalik umidlaridan panoh izlardi.”* (IV kitob, 165-b.).

Quyidagi parchada ham adib *“yaxshi o'qimoq”* fe'liga *“yomon o'qimoq”* fe'lining original namunasini keltirgan deya olamiz: *“Mantiqdan yaxshi o'qibsiz-u, hisobdan qoqilgan ekansiz-da, a?”* (IV kitob, 247-b.). Hozirgi kunda

ham yaxshi o'qimaganlik ma'nosini bildiruvchi "qoqilmoq", "yiqilmoq" kabi fe'llarni nutqimizda ko'p qo'llaymiz. Yana bir misolga e'tiborimizni qaratamiz: *"Ya'nikim, oqning muqobili qora, shirin ro'parasida achchiq, mehrning ziddiyati qahr, shafqat qarshisida zulm mavjud. Eng ulug' muqobillik esa – o'lim va hayotdir."* (IV kitob, 238-b.). Asarda juda ko'p qo'llanilgan antonimlardan biri - *do'st, dushman* so'zlaridir: *"Chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stning dushmanligidan qutulish qiyin..."* (IV kitob, 332-b.).

Tarixiy so'zlar. Jamiyat o'sib-o'zgarib borar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotdagi ba'zi tushunchalar tamomila eskirib, amaliyotdan chiqib ketadi. Badiiy asarda muayyan davr voqealari tasvirlanar ekan, ana shu davrga oid bo'lgan eski tushunchalarga murojaat qilmaslikning aslo iloji yo'q. Tilshunoslikda bunday tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar «arxaik so'zlar» va «istorizm – tarixiy so'zlar» degan nomlar ostida umumlashtiriladi. Tilning hozirgi davri uchun eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan til birligi arxaizm deb yuritiladi. «Arxaizm o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi.»⁵ Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Asarda jinoyatchilarning majlislari, yig'inlari arxaizm bilan berilganiga juda ko'p o'rinda ko'zimiz tushadi: *"O'ychi o'yiga yetguncha, tavakkalchi uyiga yetadi", deganlariday, hozir "Nima qilsam ekan?" deb mashvarat quradigan vaqt emas."* (V kitob, 701-b.); *"Asadbekning kutilmaganda qozixonaga kirib kelishi Qozini ham, Qamariddin, uning o'g'lini ham dovdiratib qo'ydi."* (IV kitob, 290-b.). Hozirgi kunda uchramaydigan, faqat tarixiy narsa yoki voqea-hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar istorizm (tarixiy so'zlar) deyiladi. Istorizmning arxaizmdan farqi shundaki, bugungi kunda o'sha tarixiy voqelikning o'zi ham, uni anglatuvchi boshqa leksik birlik ham bo'lmaydi, demak istorizm o'zi ifodalayotgan hodisaning yagona nomidir. Masalan: amin, mingboshi, noyib, mirza, ellikboshi kabilar badiiy matnda

⁵ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: FTM, 2009.

ishlatilganda kitobxon ijtimoiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq tarixiy voqelikni ko'z oldiga keltiradi. T.Malik "Shaytanat" qissasida o'zbek xalqining mustaqillik uchun kurashga qaratilgan milliy ozodlik harakati voqealari haqida ham bayon qiladi, bunda u tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatadi: *"Turkiston kerakkim muxtoriyat bo'lsun, muhokama shariyalar barpo bo'lsun. ... Ammo mullalar syezdi Turkistondan askar olinmoqg'a qaror beribdur, deb ilmodan balki ba'zilar norozi bo'lur deb boshqa syezdga muquf qo'yildi"* (I kitob, 208-b.). Yana bir misolga e'tiborimizni qarataylik; *"Moziy tiliga ko'chirilsa, ular - qo'mondonidan ajralgan asirlar. Asirlarning taqdirini esa hamisha g'olib amirlar hal etganlar."* (III kitob, 658-b.). Adib jinoyat olamini kichik bir saltanat sifatida takidlagani uchun ham to'daboshisi o'ldirilgan guruhni tarixga qiyos aylab, qo'mondonidan ajralgan asirlarga o'xshatgani bejiz emasligini ko'ramiz (*"Agar ta'bir joiz bo'lsa, Asadbek shaytanat olamining "o'zga davlat" rahbari, yigitlar esa "mag'lub mamlakat"ning fuqarolari edilar"*). *"Hovuz polvon "Hoy mirob, ovqat berasizmi yo yo'qmi?" deb baqiradi. Ikki-uch yil ichida u Mahmudning bobosi bilan do'stlashib, shunday hazil qilishga haddi sig'ib qolgan edi."* (II kitob, 396-b.).

Yangi so'zlar.

Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan, yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar neologizmlar – yangi so'zlar deyiladi. «Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi». Badiiy asarda asosan individual nutq neologizmlari badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Mahoratli yozuvchilar voqelikni o'ziga xos, betakror va yangicha ifodalashga harakat qiladilar. Shuning uchun hali ko'nikilmagan yoki umuman qo'llanilmagan, yangi, ohorli so'zlardan foydalanadilar. Buni quyidagi misollarda ham ko'rish mumkin: *"Senga vidik qo'yib beraman, ko'rsang, nervlaring uspokoit bo'ladi."* (III kitob, 780-b.);

“Shunday vunderkindni bekordan-bekorga berib yuborsam, ovsar, deb malomat qilishmaydimi?” (V kitob, 578-b.).

Sheva soʻzlari. Yozuvchi oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadi. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga «badiiy nutqda muayyan estetik vazifani ham bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilinganligini kuzatish mumkin. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni oʻzgartirib qoʻllash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qoʻllash koʻrinishlarida namoyon boʻladi. T.Malik oʻzining besh kitobdan iborat qissasida asosan Toshkent shahri, qisman Fargʻona vodiysi kabi hududlarning shevalaridan unumli foydalanadi. Bundan tashqari asarda Germaniyada yashab yurgan turkiylar ham eski oʻzbek va turk tillarini aralashtirib ishlatishini adib mahorat bilan koʻrsatib beradi. Masalan, *“Choʻx goʻzal falsafa soʻylading, gardash. Xatar ham, oʻlim ham bizlarga hamroh oʻlur.”* (V kitob, 131-b.); *“Yevropaya taman narkotik shu yerdan oʻtajak oʻlsa, san-da qarshilik qilmiyursan.”* (V kitob, 678-b.). *“- Rahmat, kennoyi, chang-pangini qoqib olay, - Anvar shunday deb boshini qogʻozdan koʻtarib yangasi yonidagi uzun boʻyli yigitchani koʻrdi .”* (I kitob, 208-b.); *“Endi skuchat qilsangiz oʻziyz borib koʻrasiz.”* (IV kitob, 158-b.). Matnda qoʻllangan *“kennoyi”* soʻzi Toshkent shevasida *“kelin oyi”*, yaʼni, akasining xotiniga nisbatan qoʻllanuvchi murojaat shaklidir. Fargʻona voqealari aks etgan parchada ham Fargʻona shevasiga oid soʻzlardan mohirona foydalangan : *“...Agʻda Quvasoy, bagʻda Margʻilon, ana agʻda Fargʻona. ...Omma boyib, bosar-tusarlarini bilmay qolishuvdi. ...Gapimning chatagʻi boʻlsa aytovring.* (I kitob , 311-b.). *“Toʻngʻizqoya”* deb ataluvchi Andijon chegaralarida joylashgan togʻ odamlari shevasi ham ochib berilgan: *“Yoʻq, men hamsoyalariman. Usta*

otga qarayativdilar. Bugun Aravonda katta uloq, deng, ashaqqa borish kerak. Endiyla jo' naymiz deb turuvdik." (III kitob, 575-b.).

Tog'liklarga xos bo'lgan mardlik, soddadillik ham ularning nutqi orqali ochib berilgan: *"Sen gaplashovur. So'raganini tovib beramiz. Puli yo'qligidan keldi, dema. Pul bor, Xudoga shukr. Gaplashadigan lab-dahan yo'q bizda."*, *"E, yo'q, o'qiydag'on bolamas u. Xafa bo'lma, omma, senga ham topshirmayman."*, *"Be, shu paytgacha patta bilan yuribmanmi? Beshta so'm beraman, ketovraman-da."* (II kitob, 398-b.).

Asarda qisqagina o'rinda Buxoro shahri bilan bog'liq tafsilotlar berilgan bo'lsa-da, yozuvchi unda Buxoro shevasiga xos bo'lgan ko'plab qirralarni, jumladan qiziqqonlik, xazilkashlik, qaysarlik kabi hudud aholisiga xos bo'lgan jihatlarni chiroyli tasvirlab bergan:

"Haym akoni nima qilasiz?- deb savolga savol bilan javob berildi.", *"Ako, menga qo'rqish yo'q. Tanga ham yo'q."*, *"Xay, pulingiz kissangizgame?"*, *"He, esingizga bir narsa, sizning. Bu yerga sanamang pulni. Boshqa joyga sanab keling."*, *"Aka Abdurahmon amonme?"* (III kitob, 758, 759-betlar).

O'sha davr ijtimoiy tuzumini nazar solsak, Markaziy Osiyo xalqlari bir elat bo'lib yashaganini hisobga olsak, qirg'iz millati nutqiga ham ko'zimiz tushadi (yozuvchi 1990-yilgi O'sh voqealarini ham qisman keltirgan edi): *"Abdurahman Quday Bergen do'steli, ani qirg'izdar o'ltirgeni joq, - dedi bosh egib o'tirgan Jo'lon xuddi o'ziga o'zi gapirganday."* (V kitob, 600-b.).

Vulgarizm, varvarizmlar. Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki nutqda mavjud bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda qahramon xarakteri, milliy mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda voqea-hodisaga xorijga xoslik ta'kidini berish maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma'lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunday birliklar varvarizm (ayrim adabiyotlarda ekzotizm)lar deb yuritiladi. Tilshunoslikda

vulgarizmlar va varvarizmlar qo`pol yoki yot so`zlarda o`ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko`rinib turgan bo`ladi. Bunday so`zlar ko`proq nominativ ma`nolariga ko`ra emas, ayni shu konnotativ ma`nolariga ko`ra nutqda yashaydi. Haqorat so`zlari asarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqeyi, yoshi kabilari) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qo`llanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim bo`ladi. Ma`lumki, jamiyatning o`ziga xos qatlami bo`lmish qimorbozlar, o`g`rilar, fohishalar hamda qonun himoyachilari, qolaversa, shu kabi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi boshqa insonlar nutqida shunday so`zlarning iste`molda bo`lishi kuzatiladi. Asar ayni shu mavzuga bag`ishlangani uchun ham bunday qo`pol, haqoratli va salbiy ma`no bo`yoqdorligiga ega so`zlar ko`plab uchraydi: *bratan, dux, so`tak, ablah, hezalak, xunasa, bezbet, hebbim*, kabi. “— *Hovliqma, e galvars, buningni qo`rqitishgan. Bu hezalak bitta gapga laqqa tushgan* (II kitob, 20-b.); “*Uning ishini ucha-muncha qanjiq eplolmaydi.*” (II kitob, 377-b.); “*Adamning xatlarini nima qilarding, xunasa?!*” (II kitob, 541-b.).

Tadqiq etilayotgan asarda ko`proq ruscha so`zlar nutqda ko`zga tashlanadi va ba`zi o`rinlarda ular o`zgarishsiz qolsa, ba`zi o`rinlarda buzib talaffuz etilganini ko`rishimiz mumkin: “*Hay adajonisi, bir minutga to`xtang, u nas novosti! Leningradda parikmaxerlarning mejdunarodniy vistavkasi bo`layotgan ekan. — Nu da, konkurs. ...— Kak eto — katta ko`cha? I Gogik pobeditel bo`lishi kerak. ...— Nu zachem adajonisi, Gogik Monikaning sochini pricheska qilishi kerak. ...—Postoronniy odamni oldida prosto unijat qilib yuborasiz. — Mersi papul, - qizi shunday deb erkalanganicha uni o`pdi-da quvnoqlik bilan iziga qaytdi.*” (IV kitob, 155-b.).

Barqaror birikmalar. Ikki va undan ortiq so`zlarning o`zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo`lgan til birliklari barqaror

birikmalar deyiladi. Iboralar, maqol-matallar va hikmatli soʻzlar barqaror birikmalar hisoblanadi. Misol uchun, *“Hamdamning bunday tartibga toqati yoʻq, oʻz iborasi bilan aytganda, unga “it yotish –mirza turish” yoqardi.”* (V kitob, 687-b.); *“Hikmat – baliq, qoʻlda ushlab turish mumkin emas.”* (II kitob, 181-b.).

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalanirishda frazeologik iboralarning oʻrni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchi, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydi, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi. Bunda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon boʻladi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi maʼno nozikliklari bilan toʻyinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha maʼno talqini berishning yoʻllari juda xilma-xildir. Bunga umumtil iborasi zamiridagi maʼnoning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini oʻzgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli maʼnolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yoʻldoshev tomonidan keng oʻrganilgan. Tohir Malik nihoyatda oʻtkir qalam sohibi boʻlish bilan birga asardagi qahramonlarning ziyrakligi, topqirligini inobatga olsak ular nutqida iboralarning koʻplab uchrashi tabiiy, misol tariqasida: *“-Nimasi gʻalati? – dedi Kesakpolvon ensasi qotib. –Suvdan quruq chiqqani.”*, *“Xongireyga aytamiz. Oʻzi pishirgan oshni oʻzi ichsin.”* (III kitob, 801, 802-betlar); *“Chunki bundaylar dunyoviy mahkamaga tortilguday boʻlsalar, jazodan qutulib qolish, yoki yengilroq hukmga erishish maqsadida sheriklari ustidan magʻzava agʻdaraveradilar.”* (V kitob, 654-b.); *“Asadbek gʻazab alangasini bosib, endi arqonni uzun tashlashni ixtiyor qildi...”* (V kitob, 699-b.); *“U xomkalla qovun tushirib qoʻyishi*

mumkin.” (II kitob, 545-b.); *“Akangiz buni tuflamay yopishtiribdi, shunga xafa, - dedi Hosilboyvachcha.*” (II kitob, 539-b.).

Maqol - matal va hikmatli so'zlar. Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy matnning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi. Hikmatli so'zlar ma'lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma'nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir. Nutqqa tayyor holda olib kirish imkoniyatiga ega bo'lgan bunday so'zlar “aforizmlar” ham deyiladi. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so'zlar “paremalar” deb ham yuritiladi. Tohir Malik ushbu asarida xalq og'zaki ijodining go'zal namunalaridan sermahsul foydalangan. Misol keltiradigan bo'lsak:

- *“Vatan – ya'ni ona yurtni sog'inish darajalarini belgilamoqda “musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas”, degan hikmatni hisobga olmoq balki joizdir.*” (IV kitob, 8-b.);
- *“Bizda och qornim, tinch qulog'im degan maqol bor”* (II k, 535-b);
- *“Ponani pona bilan chiqaradi” deganlariday o'zi ham piching bilan javob qaytardi.”;*
- *“Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa, birovga ur” degan hikmatni eshitmaganmisan?”* (III kitob, 649-b);
- *“Toqqa tog'ning ishi tushmas ekan, odamga odamning ishi tushib turarkan.”* (II kitob, 391-b.);
- *“Meni bilasan-a, “oqmasa ham soy yaxshi, boqmasa ham boy yaxshi” deydigan odamman.”*

- *“Ishtonsizning hadigi cho’pdan” deganlaridek, Asadbek har bir qarashi Kesakpolvonning nigohiga sanchilardi.”* (IV kitob, 173-b.);
- *“Chiqmagan jondan umid”, deganlariday, Fima titroq ovozda o’zini oqlamoqchi bo’ldi...”* (V kitob, 651-b.).

Ruscha maqollardan ham namunalar keltirilgan: *“Bularning bir maqoli bor: “Puling bo’lsa xaltada, yallo qilgin Yaltada”, shunaqami a?”; “O’rislarda maqol bor: “Tulaga o’z samovari bilan borilmaydi.”* (III kitob, 683-b); *“O’rislar aytadi-ku, “Baxt yo’q edi, baxtsizlik qo’llab yubordi”...”* (V kitob, 644-b.); *“Xa, mayli, o’rislarning gapi bor-ku: hechdan ko’ra kech ham yaxshiroq.”* (V kitob, 637-b.); *“Bek aka, o’rislarda “ehtiyotkor odamni Xudo ehtiyot qiladi” degan maqol bor.”* (V kitob, 635-b.).

Ba’zi hikmatli so’zlar esa, “roviylar, mashoyixlar” tilidan zohir bo’ladi:

“Mashoyixlar: “Otamlatsang otamlatgin, bo’tamlatmagin” deb bejiz aytmaganlar.” (III kitob, 729-b); *“Bir donishmand: “Aytgan so’zim – xojam, aytmaganim – qulim”, degan ekan.”* (V kitob, 648-b.); *Payg’ambarimiz alayhissalom “o’lmasdan burun o’linglar”, deb marhamat qilganlar* (V kitob, 434-b.); *Shoir: “Har nimaga g’am yema – g’am ko’p durur, aysh birla o’zni ovutmoq kerak” degan ekan.* (IV kitob, 273-b.); *Mashoyixlar: “Bedardning oldida boshimni og’ritma”, deganalricha bor.* (III kitob, 591-b.).

Bir o’rinda arab maqoli ham keltirilgan: *“Arabning “Biz bermoqni o’rgandik, olmoqni o’rgana olmadik” maqolidagi singari olim ham beradi-yu, birovdan olmaydi.”* (V kitob, 723-b.).

Agnonimlar. Agnonim atamasi yunon tilidan olingan bo’lib, “bilinmagan”, “tushunarsiz”, “noma’lum nom” degan ma’noni bildiradi. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o’sha tildagi noma’lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo’lgan so’zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya’ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog’liq hodisa deb qabul qilish mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida ko’plab

uchratish mumkin. Asosan, o'g'rilik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan qahramonlar nutqida kuzatiladi: *“Yuqori martabaning “kozirli frayer” deb ataluvchi dastlabki bosqichidan o'tgan edi xolos.”* (V kitob, 651-b.).

Biz “Shaytanat” qissasida qo'llanilgan leksik birliklarning tahliliga to'xtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida lisoniy, kommunikativ, akkumulativ hamda estetik vazifalarni bajarishini alohida ta'kidlaymiz. Adib tomonidan qo'llangan lug'aviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funktsiya bajarish kabilar bilan bir qatorda, ular nutqidagi jinsga mansublik, ya'ni maskulinlik va feminlikni aks ettirishini ham kuzatishimiz mumkin.

1.2. Tohir Malik asarlarida grammatik birliklar uslubiy vosita sifatida.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik va sintaktik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Ma'lum bir fikrni ifodalash uchun morfologik shakllarning va sintaktik qurilmalarning stilistik variantlaridan foydalanish va tilda ana shunday sintaktik va morfologik sinonimiyaning mavjudligi grammatik birliklar haqida so'z yuritishga asos bo'ladi.⁶ Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda, «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funktsiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi.» Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda, dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni

⁶ Шомаксудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Т: Ўқитувчи. 1983.

qaratish lozim bo‘ladi. Odatda, erkalash – suyish, hurmat – e‘zozlash, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik, tantanavorlik kabi ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar ijobiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Masalan: qizaloq, toychoq, o‘rgilay, girgitton bo‘lay, bolaginam, oppog‘im, do‘mbog‘im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim kabi. Salbiy ma’no qirrasiga ega bo‘lgan so‘zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g‘azab, kinoya, kesatiq kabi subyektiv munosabatni ifodalovchi so‘zlar kiradi. Bunday ma’nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. O‘zbek tilida kichraytirish shakli –cha, –choq, –chak qo‘shimchalari bilan; erkalash shakli –jon, –xon, –oy, – (a)loq affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik, istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma’nolar –lar affiksi bilan hosil qilinadi. –gina qo‘shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma’nolarini yuzaga chiqaradi. Masalan: “ Voy, ovorasi bormi? Siz har kuni kelib yuribsizmi? Kecha nevaracham bir yoshga to‘ldi. Shuning uchun hamma yig‘ilgan edi.” (I kitob, 112-b.) Asar qahramoni Qamaraning (Asadbekning bolalikdagi do‘sti Jalilning xotini) nutqidan keltirilgan misolda u o‘zbek tilida kichraytish-erkalash qo‘shimchasi –chani “nevara” so‘ziga qo‘shib, o‘ziga xos shakl hosil qilgan.

Erkalash, xushomad qilish, maqtash ko‘proq ayollarga nisbatan qo‘llanilsa-da, asarda erkaklarga xos bo‘lgan “maqtov” atamalarini ham ko‘rishimiz mumkin: “*Qoyilman, yigitning guli, -dedi Asadbek Axtamga tikilib.*” (V kitob, 551-bet);

“*-O‘likning kiyimlari qolgandi?*

- *Ha, otangizga balli!*” (V kitob, 689-b.).

“*Ha, o‘gil bola! – dedi Kesakpolvon uni erkalaganday.*” (IV kitob, 272-b.).

Ayollarga xos erkalash, xushomad so‘zlari ham qo‘llanmay kelmagan: “*Do‘ngi qizim, tez narsalaringni yig‘ishtir, biznikiga borasan.*” (III kitob, 777-b.); “*Valya deganlari chindan ham kuydirmajon edi.*” (II kitob, 435-b.).

Tahlil jarayonida matnda qo‘llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko‘rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o‘zgachaliklar haqida so‘z yuritiladi. Masalan, eng ko‘p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri takrordir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita – morfologik parallelizmning qo‘llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Yoki, affiksallik sinonimiya, affiksallik omonimiya va affiksallik antonimiya hodisasidan ekspressiv maqsadlarda foydalanilgan holatlarni aniqlash mumkin.

Morfologik parallelizm deb “nutq parchasida mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar, grammatik vositalarning qayta qo‘llanilish usuli”⁷ ga aytiladi. Bu o‘rinda bir sintaktik qurilma doirasida parallel qo‘llanuvchi yordamchi so‘zlar, shakl yasovchi qo‘shimchalarning aynan takrorlanishi nazarda tutiladi. Morfologik birliklarning alohida estetik maqsad bilan asarda parallel ravishda qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi. Masalan, *“Sizday onaga o‘g‘il qilib dunyoga keltirgani uchun Allohga hazor-hazor shukrlar aytaman. ...Xudo sizga sabrni mo‘l-mo‘l qilib bergan.”* (IV kitob, 328-b); *“Dunyoga kelganida olam-olam quvonch baxsh etgan farzand onasini olam-olam anduhi furqat dengiziga g‘arq qilib, tarki jon qilishga hozirlanardi.”*; *“Keyin-keyin Xudo emas, shayton alayhila‘naning mukofoti ekanini anglay borib, ko‘p siqildi.”* (IV kitob, 329-b); *“Yigitlaringni bir ela-ela qilib, saralab olsang bo‘lardi, - dedi Asadbek o‘ychan tarzda.”* (IV kitob, 384-b.).

Ko‘pincha qo‘rquv hissini ifodalash uchun adib so‘zlarni takror qo‘llagan. Quyidagi parchaga e’tibor qaratamiz:

- “ - Men o‘ldirmabmanmi ishqilib? – dedi Asadbek piching bilan.
- Yo‘g‘e, yo‘g‘e! Xudo asrasin! Ikkala ashulachi kuyovingiz... Elchin akamlarga shogird ekanmi...
 - Elchin akangning ahvolini bilarsan?

⁷ Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1983.

-Bilamiz, bilamiz, o'zlaridan so'rab ko'raylik, desak, yaxshi gapirolmayotgan ekanlar. Balki o'sha yigitlarni siz bilarsiz, deb o'ylabmiz-da." (IV kitob, 386-b)

"– Samandar... o'ldimi? – dedi Jalil Asadning yengidan tortib. "Samandar o'ldi?!" "Samandar o'ldi..." Bu gap Asadning miyasiga to'qmoqdek urilib, tovonigacha zirillatib yubordi. Biroz nest bo'lib turdi-da, keyin uyga otilib kirdi. Asad ota o'rnida ota bo'lib ukasini so'nggi makonga qo'yib keldi. Qo'niqo'shnilar uni katta odamday ko'rib, ta'ziya izhor etishdi." (I kitob, 172-173-b.)

Egalik shakli ham sof egalik, qarashlilik ma'nosidan tashqari erkalatish, koyish, nolish, tinchlantirish, achinish, kinoya, kesatiq, faxrlanish, kibr, kamtarlik kabi modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Misol tariqasida: Noilam – *"Noilam, men senga yangi ko'ylak olib beray, - dedi Elchin."* (III kitob, 722-b.); *"Kuyoving endi erkak bo'libdi."* (IV kitob, 381-b.) va *Jamshid akam, opovsi, buviginasining toychoq'i, o'zlarimi* kabi birliklarda kelgan egalik shakllarini keltirish mumkin.

Sonlar, aslida, gapdagi muayyan miqdorga aniqlik kiritish uchun ishlatiladi. Lekin, mavhumlik yoki me'yordan ortiqlik ma'nolarini urg'ulash uchun (ko'proq iboralar tarkibida) qo'llanilganligini ham kuzatishimiz mumkin: *"Shunday ekan qirqiga chidagan qirq biriga chidashdan o'zga chorasi yo'q"* (V kitob, 621-b.); *"Bir tiyin ustida yuz dumalaydi."* (V kitob, 625-b.); *"Xo'jayin, yuzta otib olmasam bo'lmaydi, qo'lansa hid tomog'imni g'ip bo'g'di."* (IV kitob, 319-b.); *"Bundan beshbattari filmdan so'ng bo'ldi."* (II kitob, 501-b.).

Sifat so'z turkumi lisoniy vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. U badiiy asar tilida eng ko'p uchraydigan epitetlar hosil qilshda qo'llaniladi. Shuningdek, sifat so'z turkumidagi sinonimiya, sifat darajasini hosil qiluvchi shakllar hamda sifat yasovchi qo'shimchalar orqali ham badiiy-estetik effekt hosil qilinadi. Masalan, *"Agar tug'mas xotinlar delegatsiyasi chet elga boradigan bo'lsa ham bu odam ro'yxatning boshida turardi."* (I kitob, 13-b.); *"Izlab ovora bo'lma", deganlar u uchun ojiz maxluqqa aylanardi."* (I kitob, 50-

b.); “-Pul olmaydigan qaysar eshshakku, u?” (I kitob, 69-b.); “Kap-katta erkak odamning soʻyishga mahkum etilgan buqaday oʻkirishi, soʻng tul xotinday piqillab yigʻlashi...” (I kitob, 104-b.); “Agar Sharif hozir tiz choʻksa, faqirga lozim boʻlgan ishlarni bajarsa, bu “koʻngli boʻsh” azamat yigit yoʻq demasdi.” (I kitob, 105-b.); “Onasi – ellik yoshlarga borgan, faqat bu dunyo bilan emas, balki goʻzalligi bilan ham xayrlashishga shoshilmayotgan koʻhlikina ayol edi.” (I kitob, 185-b.). Sifat darajasini hosil qiluvchi quyidagi shakl ham eʼtiborimizni tortadi: “Axtam esa anhor boʻyiga borib, choyxonachiga “zoʻr bir jonon dasturxon” tuzab qoʻyishni tayinlagach, boshpanasiga joʻnadi.” (V kitob, 643-b.); “Men bunaqangi ipirisqi ishlar bilan shugʻullanmayman.: (V kitob, 644-b.); “— Dasturxonni yangilaymi? —Xa. Sal odambashara qilib qoʻy.”(II kitob, 565-b.).

Ravish soʻz turkumiga oid yangi jumalarni qoʻllagan adibning mahoratiga tan bermay ilojimiz yoʻq:

“ – Men toʻgrilikcha soʻrayapman.

- Men qiyshaytiribroq aytyapman.” (II kitob, 508-b.).

Badiiy matnning lingvistik tahlili jarayonida feʼl turkumiga kiruvchi soʻzlarga alohida eʼtibor qaratish lozim. Chunki, bu turkumdagi soʻzlarning ekspressiv imkoniyatlari benihoya kengdir. Feʼlning mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, zamon hamda funksional shakllari asosida namoyon boʻluvchi oʻziga xosliklarni oʻrganish maqsadga muvofiqdir: “Bu gapni eshitib Anvar “shu odam ota boʻlgan xalqning padariga laʼnat!” - dedi” (I kitob, 13-b.); “Umrini maqtov eshitish-u chiroyli qiz-juvonlar bilan aysh-ishrat qilishga tikkan idora boshligʻi Xolidiy...” (I kitob, 13-b.); “ - Hofiz, chaynalmasdan erkakcha gaplashaylik “(I kitob, 36-b.); “Yoʻq, yoʻq, siz uni ersirab qolibdi, deb oʻylamang” (I kitob, 222-b.); “Birgina jilmayishi bilan jonini sugʻurib olishi mumkin boʻlgan, ammo yangi boshqonning koʻnglini ovlay olmasdan xunobi chiqib yurgan kotiba uning qovoq uyganini koʻrib chimirildi.” (I kitob, 227-b.); “Xuddi achigan ovqat yeb qoʻyganday koʻngli aynib, qorin ogʻrigʻi boshlansa, toʻlgʻoq tutgan xotin kabi tipirchilab qoladi.” (I kitob, 227-b.); “ - Endi oʻgʻlim, biz otang rahmatli bilan

vaqtida oshnachilik qilganmiz” (I kitob, 242-b.); “*Ikkovi bir olamga tatiydigan bo`lib kamolga yetishyatuvdi.*” (V kitob, 238-b.); “*Qarshi tomon javob bermay yana ma`sumalik libosiga o`raldi.*” (I kitob, 246-b.).

Shuningdek, atoqli otlar sirasiga kiruvchi – antroponimlarning muayyan maqsad bilan qo`llanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qo`llanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham bo`ladiki, ular yozuvchining g`oyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi. Biz tadqiq etayotgan “Shaytanat” asarida qahramonlar ismida ham ana shunday uslubiy maqsad, ma`lum ma`nolar yotganini ko`ramiz: *Asadbek* – sher, arslon, qo`rqmas; *Jalil* – yuksak, ulug`vor; *Haydar* -(arslon)ning, ya'ni xalif Alining quli; *Shomil* – yordamchi, suyanchiq; *Mahmud* - Maqtalغان, maqtovg'a sazovor, Muhiddin - Dinni qo'lovchi, jonlantiruvchi, dinga go'zallik, nafasat baxsh etuvchi. Asarning o`zida ham ismga ta`rif berilgan qatorga ko`zimiz tushadi: “*Nima bo`ldi, o`tirishing boshqacha-ku? Halim bilan urushib qolmadingmi, ishqilib?*” –deb so`radi.

-*Uning nimasi bilan urishaman, otiga yarasha halim-da...*” (V kitob, 637-b.).

Qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o`rtasidagi muvofiqlikdan ekspressiv effekt yuzaga kelgan. Bu albatta yozuvchining lisoniy mahorati hisoblanadi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib boriladi. Tohir Malik ham ruscha ismlardan ham ekspressiv effektini yarata olgan: “*Nima bo`lardi, Kozlov o`lsa, o`rniga Baranov chiqar, u o`lsa, Zaytsev bordir. Senga Zaytsev bo`lgani durust, - dedi Asadbek zaxarli kinoya bilan. Nasabga doir so`z o`yini qilgani Mamatbeyga xush yoqib, ko`zlari chaqnadi...*” (V kitob, 677-b.).

Umuman, antroponimiya (ism, ota ism, familiya, laqab va boshqalar)ni tadqiq qilish kishilarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari bilan mustahkam bog`liq bo`lgani uchun boy material beradi.

Davlatlarning nomlarini ham sof turkiy holda qo`llanganini ko`ramiz: “*Gurjistonda uchrashganida u: “O`g`illaring men kabi uzoq umr ko`rsinlar,*

men kabi halol yashasinlar, ammo farzand hajridan yiroq bo'lsinlar!" deb duo qilgan edi." (V kitob, 667-b.); *"Olmoniyada o'lsun, Birlashmish Shtatlarda o'lsun yoinki Saudiydami, Turkiyadami, Afg'ondmai bo'lsin, yashamoqda o'lan o'zbaklar shu umidni tanlaganmiz.*" (V kitob, 681-b.); *"Moskva va uning atroflariga hukmronlik qiluvchi Qo'qaz guruhlar bilan Slavyan guruhlar orasida kelishmovchilik chiqqunday bo'lsa, albatta Balabuxa aralashardi.*" (V kitob, 402-b.).

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. «Badiiy tekstning lingvistik tahlili» kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: «anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar»⁸. Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Umumlashtiradigan bo'lsak quyidagi holat yuzaga chiqadi: 1.Sintaktik parallelizm.

2.Emotsional gap.

3.Ritorik so'roq gap.

4.Inversiya.

5.Ellipsis.

6.Gradatsiya.

7.Antiteza.

8.Farqlash.

9.O'xshatish.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar

⁸ O'rinboyev B., Qo'ng'irov R., Lapasov J. **Badiiy tekstning lingvistik tahlili.** – Toshkent, 1998.

“parallelizm” atamasi ostida o‘rganiladi. Parallelizm (yunoncha, parallelos-yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo‘lishi. Masalan: “...vaqt o‘tgan edi, dadasi handaqqqa quladi. Lekin... vaqt o‘tgan edi. Ota-bola birgalashib jonsiz tanani yuqoriga olishdi. “...Dadam qanilar?! Qani dadam?!” deb dod soldi va...” (V kitob, 667-b.).

«Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va, eng muhimi, unga tinglovchini to‘la ishontira olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan, eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi»⁹. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta’sirchanligini boyitish bilan birga ma’noni kuchaytirishga va fikrning batafsil - atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq ma’lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan:

“Kimdir qadrdon do‘stini ko‘rishni istaydi – qani o‘sha do‘st?!”

Kimdir onasini ko‘rishni istaydi –qani o‘sha ona?!” (V kitob, 629-b.).

Emotsional gaplar. So‘zlovchining o‘ta xursandlik yoki o‘ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar “emotsional gaplar” hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo‘yoqdor so‘zlar (chehra, o‘ktam, tabassum, turq, qo‘pol, tirjaymoq kabi) mavjud bo‘ladi. O‘sha so‘zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo‘rquv, g‘azab kabi psixologik jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdor so‘z va iboralar, his-tuyg‘u ifodalovchi undovlar (oh, uh, voy sho‘rim, eh attang, bay-bay-bay kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta’minlashga xizmat qiladi: “*Oh-oh, bunaqa ashula uchun joningni berib yuborsang arziydi, - dedi Jalil ko‘ngil xushligidan mast bo‘lib.*” (V kitob, 612-b.); “*Uh, maraz! – Axtam tishlarini g‘ijirlatib, urushga chog‘langanday mushtumini tugdi. – Qizlarning javdirashiga qarab,*

⁹ Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent, O‘qituvchi, 1983.

ko'nglim sezganday bo'luvdi-ya!" (V kitob, 637-b.); *"Voy itvachcha! – dedi Kesakpolvon. – Voy, turqingga uray!..."* (II kitob, 543-b.); *(Vey, g'irt o'gil bola ekansan, menga yoqding!)"* (IV kitob, 273-b.); *"Yashasin sovet jinnilari, ura!"* (II kitob, 508-b.).

Ritorik so'roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlovchi uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar "ritorik so'roq" gap deyiladi¹⁰. Ko'pincha ritorik so'roq gaplar tarkibida nahotki, axir kabi ta'kidni kuchaytiruvchi so'zlar keladi. Ular nutqqa ko'tariki ruh bag'ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta'kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g'azab va nafratini ifodalashda juda qo'l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo'llaniladi: *"Xasta ruhni o'ldirish mumkinmi?"* (III kitob, 790-b.); *"Dunyoda adolat izlagan kammi?"* (V kitob, 682-b.)

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishi, yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi: *"Adamning nozik joyini kalamushga yem qilibdi... kimdir."* (V kitob, 644-b)

Ellipsis (yun. elleipsis – tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytiladi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod - lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo'lib, badiiy matnga ham huddi shu – jonli nutqqa xos tabiiylikni ta'minlash maqsadi bilan olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis tekshirilganda, qaysi gap bo'lagi ellipsisiga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi izohlanadi:

¹⁰ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007.

- *Yana nima darding bor, gapir, -dedi Xongirey.*
- *U bir o'zi qochmabdi, sherigi bor, - dedi Mamatbey.*
- *Kim?*
- *Tanimaysiz, men ham tanimayman.*
- *Kim deyapman?! – Bu safar Xongirey zarda bilan so'radi/*
- *Mentlardan ekan.*
- *Nima bilan o'tiribdi?*
- *Zo'rlash. (IV kitob, 261-b.).*

Gradatsiya (lot. gradatio – zinapoya, bosqichma bosqich kuchaytirish). Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks); ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya. Asarda ham gradatsiyaga ko'plab misollar berilganini ko'ramiz: *“Tinimsiz kelib-ketgan hodisalar insonlarni o'zgartiradi, eskitadi, qaritadi.”* (V kitob, 679-b.); *“Atrofimizga ziyrak boqaylik: chindan ham kishi boylik , mansab orttirsas, darrov tug'yonga ketadi, hovliqadi, haddidan oshadi.”* (V kitob, 609-b.); *“Banda o'zi o'qisa, tushunsa, amal qilsa, savob darajasi balandroq bo'ladi.”* (V kitob, 596-b.).

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. «Zidlashda voqea, hodisa, belgilarni o'zaro zid qo'yib shulardan birining belgisi alohida ta'kidlanadi. Zidlash hodisasi ham ikki komponentdan iborat bo'ladi va keyingi komponentdan anglashilgan mazmun ta'kidlanadi. Demak, zidlashda ikki qism

mavjud: zidlovchi qism va zidlash asosida ta'kidlanuvchi qism.»¹¹ Zidlash asosan bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap shakllarida kuzatiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'rinadi. Masalan: *“Ayrim olimlarning aytishicha, chaqaloq tug'ilishi hamon “Ana endi o'ladigan bo'ldim”, deb yig'lar emish.”* (IV kitob, 260-b.).

Tilshunoslik va adabiyot ilmda **oksyumoron** deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladi. Oksyumoron grekcha so'z bo'lib, «o'tkir lekin bema'ni» degan ma'noni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda «okkozional birikmalar», «noodatiy birikmalar» yoki «g'ayriodatiy birikmalar» deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko'nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta'minlaydi. Bunday g'ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma'lumki, istalgan ikki so'zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g'ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog'lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur. “O'zaro bog'lanmaydigan so'zlarni bog'layotgan kuch nimada? Ularning birikib badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mavjud? Yozuvchini bunday «maromsiz» birikmalar yaratishga nima majbur qildi?” kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin. Asarda Rumiy hazratlaridan keltirilgan bir rivoyatda aynan shunday birliklarni uchratamiz: *“Shunchalar bahaybat ediki, go'yo kattakon bir piyozday... Ko'z uzoqlarni ko'rar, kar juda yaxshi eshitardi. ...Qush shunchalar boqilgan ediki, semizligidan vujudida go'shtdan asar ham yo'q edi.”* (V kitob, 672-b.).

Farqlash deb ikki narsa – buyum, voqea – hodisa yoki holatlardagi

¹¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010, 94-b.

differential belgini aniqlashga aytiladi. Farqlash ham qiyos va chog‘ishtirishga asoslanadi. Ifoda usuliga ko‘ra antitezaga yaqin, lekin «antitezada mantiqiy jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutb qiyoslanadi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi» Tasviriy vosita sifatidagi farqlashda belgilar qaysi xususiyatiga ko‘ra farq qilayotganligi aniqlanadi. O‘xshatish ham qiyosga asoslanadi, biroq o‘xshatishda integral belgilar idrok qilinadi. Farqlashda qiyos asnosida o‘rtaga chiqadigan fundamental tafovut nazarda tutiladi. O‘xshatishda bo‘lgani kabi farqlashning ham ifoda unsurlarini quyidagicha tartiblash mumkin: 1.Farqlash subyekti. 2.Farqlash nisbati. 3.Farqlash asosi. 4.Farqlashni yuzaga keltiruvchi shakliy belgilar. 5.Farqlash natijasi. Masalan: “*Abdusamad onasiga o‘xshash bo‘shashganroq, Abduhamid esa otasi kabi irodasi mustahkam yigit edi.*” (IV kitob, 310-b.); “*Chunki u Asadbek, do‘sti esa Jalil, ya‘ni ikkovi ohanraboning ikki qutbi edi.*” (II kitob, 479-b.).

O‘xshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretrroq, bo‘rttiribroq ifodalash»¹²ga aytiladi. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta‘minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur nazarda tutiladi, ya‘ni: 1) o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari. Masalan: O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatishli qurilma ham shu darajada ohorli bo‘ladi. Badiiy matndagi o‘xshatishli qurilmalar tekshirilganda ularni an‘anaviy va xususiy-muallif o‘xshatishlari sifatida tasniflash kerak bo‘ladi. An‘anaviy o‘xshatishlar og‘zaki nutqda ko‘p ishlatiladigan, shu sababdan ta‘sirchanligini yo‘qotgan o‘xshatishlardir. Masalan: tulkiday ayyor, toshday qattiq, yuzlari oydek, ko‘zlari charosdek, qo‘yday

¹² Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т. 1987.

yuvosh, otning qashqasiday ma'lum kabilar. Aslida ko'p takrorlanishi tufayli «siyqasi chiqqan» deb baholanadigan bunday qurilmalarni tasviriylilik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim: *“Vrach esa xalq og'zaki ijodini o'rganayotgan olimday boshini egib, sukut saqlaganicha toqat bilan tingladi.”* (V kitob, 568-b.); *“Cho'chqaning ozg'ini, negrning mallasi bo'lmaganidek, bu toifa odamlarning mehr-shafqati yo'qligini shu paytga qadar bilmas edi.”* (V kitob, 569-b.); *“Kesakdan olov chiqqanday hovliqasan-a? Bu odaming zo'r alkashga o'xshaydi.”* (II kitob, 475-b.); *“Dumini gajak qilgan chayon kabi endi zahrini solishga shaylanganida eshik ochilib, Chuvrindi kirib keldi.”* (II kitob, 446-b.); *“Qilich nima? Pashshaning yulingan qanoti. Puf desak, uchadi-ketadi.”* (II kitob, 445-b.).

II BOB . “Shaytanat” asarining sotsiolingvistik tadqiqi.

Umumjahon xalqlari o`z-o`zining o`rnini qidirayotgan bir davrda Vatanimiz O`zbekistonning har bir yashovchisi o`z nutqi va odobida, o`z muomala madaniyatida o`zbeklarning dunyo xalqlari o`rtasidagi mavqeyining naqadar ustunligini namoyon qilayotgani ma'lumdir.

Shuning uchun ham olimlar inson tilini u yashab turgan jamiyat bilan chambarchas bog`liqligini isbotlab, o`z mulohazalarini ilmiy asosda bildirib kelmoqdalar.

Ma'lumki, sotsiologiya jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari, torroq ma'noda ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy sistemalarning yashashi va taraqqiyot xususiyatlarini, uni harakatlantiruvchi kuchlarni o`rganuvchi fandir.

Tilning taraqqiyotiga jamiyatning, aksincha jamiyat rivojiga tilning ta'siri, buning omillari, qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi sohani sotsiolingvistika (ijtimoiy tilshunoslik) deb yuritilmoqda.

G'arb va Amerika tilshunosligida sotsiolingvistika muammolariga doir bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarning aksariyatida til bilan jamiyat o`rtasidagi munosabat, til taraqqiyotiga jamiyatning, sotsial omillarning ta'siri, ijtimoiy tilshunoslik bilan sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, lingvistika, etnolingvistika va boshqalar orasidagi bog`liqlik, sotsiolingvistikaning tadqiq ob'ekti, predmeti, tilning ijtimoiy tarmoqlanishi, bu tarmoqlarning milliy tilga munosabati, tilning sotsial-differensial variantlari va ularda lisoniy variantlarning ko'rinishlari, muloqot jarayonida shaxslarning roli, nihoyat davlat til siyosatining til rivojiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

“Sotsiolingvistika sotsiologiyaning tarkibiga kiradimi yoki tilshunoslik tarkibigami yoxud mustaqil sohami?”, “Sotsiolingvistika o`z mustaqil ob'ekti, predmeti va metodlariga egami?” – deyilgan savollar yuzasidan munozaralar davom etmoqda. Ba'zi ishlarda **umumiy sotsiologiya, makrosotsiologiya** va **mikrosotsiologiya, sotsiolingvistika** va **lingvosotsiologiya** haqida gap boradi.

Hozirda sotsiolingvistika, lingvosotsiologiya va lingvistik sotsiologiya deb yuritilayotgan soha: o'z vaqtida **til sotsiologiyasi** (социология языка, **sotsiologik lingvistika** (социальная лингвистика), **sotsial tilshunoslik** (социологическое языкознание), **lingvistik sotsiologiya**, **lingvosotsiologiya** kabi nomlanib kelgan.¹³

V. Bondaletovning fikricha, sotsial lingvistika tilshunoslikning bir yo'nalishi bo'lib, u til kelib chiqishining ijtimoiy asoslarini, tilning jamiyatga ta'sirini tadqiq qilishi kerak¹⁴.

Sotsiolingvistika tilshunoslikka daxldor bilim tarmog'i bo'lib, o'zbek tilshunosligida o'z o'rnini topmoqda. Tilning ijtimoiy holati, tilning paydo bo'lishi, til va jamiyat, ikkitillilik va ko'ptillilik, tillarning o'zaro ta'siri, ism va toponimlarning yuzaga kelishi, bunda jamiyatning o'rni, ijtimoiy muhitning ta'siri, ism va toponimlarni motivativ tasniflash ushbu yo'nalishning dolzarb vazifalaridan biridir. Ismlar ma'nosini ochishda ekstralingvistik omillarning o'rni haqida gap ketganda ism etnolingvistik jihatdan ham tavsiflanadi. Umuman, sotsiolingvistik yoki lingvosotsiologik tahlilni lingvistik tahlildan farqlanuvchi, ammo u bilan bog'liq holda amalga oshiriluvchi tahlil usuli deb bilish lozim bo'ladi.

Sotsiolingvistikani fan sifatida o'rganish jarayonida uning umuminsoniy hamda siyosiy xususiyatlari, jumladan, til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish, shuningdek, tilning falsafiy xususiyatlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shunday ekan, sotsiolingvistikani o'rganish va tatbiq etish jarayonida uning ijtimoiy-lisoniy omil sifatida hayot va jamiyatda tutgan o'rni baholanadi. Shu orqali sotsiolingvistika va umumiy fanlar nazariyalari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Ayniqsa, ko'pgina tilshunos olimlar nazdida "sotsiolingvistika"ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi. Holbuki, ko'pgina tilshunos olimlar

¹³ Бондалетов Б.Д. Социальная лингвистика.- М., 1987, С.10.

¹⁴ O'sha asar. 3-10-betlar.

«sotsiolingvistika»ni o`rganish jarayonida turli xil falsafiy mushohadalar yuritishdi. Ularning ayrimlari materialistik nuqtayi nazardan yondashgan bo`lsalar, ba`zilari esa idealistik nuqtayi nazardan qarab keldilar. Biz esa ijtimoiy tilshunoslik masalalarini to`g`ri baholash va aniqlashni hayot va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`lab o`rganamiz. Jumladan, O.Axmanovanning «Lingvistik terminlar lug`ati» yoki A. Hojievning «Lingvistik terminlarning qisqacha izohli lug`ati» ni ko`zdan kechirish orqali ham bu masalaga oydinlik kiritish mumkin. Xususan, O.Axmanova lug`atida «sotsiolingvistika» termini «ijtimoiy lingvistika», «tilshunoslikning ijtimoiyligi»<sup>15</sup> deb atalishi asosida quyidagicha ma'no kelib chiqadi: birinchidan, tilning umuminsoniy munosabatlardagi o`rni, til va jamiyat o`rtasidagi xususiyatlarning o`zaro bog`liqligini o`rganish tatbiq etilsa, ikkinchidan, tilshunoslikning ijtimoiy munosabatlardagi turli xil vazifaviy xususiyati va aloqadorligi (masalan, ijtimoiy dialekt, hududiy dialektlar, argo va jargonlar) va hokazolar til va jamiyat o`rtasidagi mushtaraklikni bog`lashga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Ikkinchi vaziyatda ijtimoiy dialektlarning ijtimoiy til mohiyatlarini belgilovchi xususiyatlari faqat ijtimoiy dialekt sifatida emas, balki professional nutq, koyne va h.k tarzda tushuniladi. Ko`rinadiki, sotsiolingvistikaning asosiy muammosi «til va jamiyat» o`rtasidagi munosabatlarni o`rganishdan iboratdir. Shunday ekan, til va jamiyat munosabatlari o`rtasidagi bu bog`liqlik til va jamiyat taraqqiyotining uzviy ko`rinishidir.

Ko`pchilikning sevimli yozuvchisiga aylangan adib Tohir Malik badiiy til bobida o`ziga xos so`z san'atkori, novatordir. Iste'dodli yozuvchining "Shaytanat" asari o`zida bir qancha mavzularni qamrab olganligi (mafiya a`zolariga aylangan jinoyatchilar, yirik siyosiy o`yinlar, davlat huquq-tartibot idoralaridagi dastlabki tergov bilan bog`liq vaziyatlar) ni inobatga olgan holda biz asardagi asosiy qahramonlar, ya'ni mafiya a`zolariga aylangan jinoyatchilar nutqini sotsiolingvistik tadqiq etish masalasini yoritishga harakat qilamiz.

¹⁵ Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969.

2.1. “Shaytanat” asarida mafiya a’zolariga aylangan jinoyatchilar nutqining o’ziga xos xususiyatlari.

Jahon va o’zbek adabiyotida mafiya a’zolari hayot tarzidan hikoya qiluvchi qator asarlar yozilgan, jumladan, Mariyo Pyuzoning “Cho’qintirgan ota”, “Sitsiliyalik”, “Birinchi don”, “So’nggi don”, Roberto Savyannaning “Gomorra”, Garri Greyning “Bir kuni Amerikada”, Tohir Malikning “Shaytanat” kabi asarlari mafiyalar hayoti, ular yaratgan qonun-qoidalar, yashash tarzi haqida atroflicha ma’lumot beradi. Hatto Mariyo Pyuzoning “Cho’qintirgan ota” asariga ishlangan filmning butundunyo 250ta eng yaxshi filmlar ro’yxatining beshligiga kirgani va qariyb yarim asr o’z tomoshabopligini yo’qotmay kelayotganligining o’ziyoq mafiyalar hayotiga qiziqishning kuchli ekanligidan dalolat beradi. Ularning nutqi, o’zaro qo’llanuvchi maxsus jumalari va iboralari ham ko’pchilikni bee’tibor qoldirmay kelayotir. Mafiya a’zolari nutqining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish mikrosotsiologiya¹⁶ uchun muhim ma’lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Avvalo, “mafiya” atamasi bir qancha ma’no anglatishini quyidagi faktlardan ko’rish mumkin:

Sitsiliyacha “*mafiusu*” arabcha sleng “*mahyas*” so’zidan olingan bo’lib, “qat’iy maqtanchoqlik” ma’nosini berishi ayrim manbalarda ko’rsatilgan bo’lsa, ba’zi manbalarda shu tildagi “*marfud*” so’zidan olingan bo’lib, “yaroqsiz, yaramas” degan ma’nolarni anglatishi ko’rsatilgan. Uning “xavfsizlik, himoya” ma’nolarini beruvchi “*mu’afa*” so’zidan olinganligi to’g’risidagi qarashlar ham yo’q emas.

¹⁶ Kichkina jamiyatlarda, norasmiy guruh ichidagi muloqotda tilning ishlatilishini o’rganish bilan shug’ullanadigan ijtimoiy tilshunoslik sohasi.

Mashhur sotsiolog olim Diego Gambette tadqiqotlari¹⁷ ga ko'ra, XIX asrda Sitsiliyada "mafiya" atamasi ikki xil, ya'ni, "jirkanch, mag'rur" hamda "qo'rqmas va tadbirkor" kabi ma'nolarni anglatgan.

Tarixiy manbalar esa 1282-yili Italiyada fransuzlarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonning shioridagi bosh so'zlari: "O'lim Fransiya, Italiya, nafas ol" ("*Morte Alla Francia, Italia Anela*") ushbu atamaning vujudga kelishiga zamin yaratganligini ko'rsatadi.

Mafiyalar hayotini yorituvchi shoh asar hisoblangan "Cho'qintirgan ota" romanida esa mafiya so'zi sitsiliyacha dialekt¹⁸ da "boshpana" ma'nosini anglatishi bayon etilgan.¹⁹

Italiya – mafiya sardorlari yurti hisoblansa-da, ushbu jinoiy guruh faoliyatini boshqa bir qator mamlakatlarda (Meksika, Braziliya, Rossiya, ko'plab Yevropa mamlakatlari) ham keng kurtak yozganini kuzatish mumkin. Xususan, O'zbekistonda ham o'tgan asrning oxirlarida mafiya va boshqa uyushgan jinoiy guruhlar faoliyati keng avj olgan edi. Taniqli yozuvchi Tohir Malikning biz tadqiq etayotgan "Shaytanat" romanlar to'plamida aynan ushbu guruh a'zolarining faoliyati, hayot tarzi, ayanchli taqdirlarini yoritilganligi millionlab kitobxonlarning diqqatini tortdi.

Mafiya a'zolarining o'tmishiga nazar solsak, ko'pincha maktabni tashlagan, ota-onadan erta yetim qolgan, bolaligida kimdandir ozor yetgan va qalbida qasos olovi paydo bo'lgan yoki hayotda adolatsizlikka uchragan yigitlar mafiya saroyiga kirib qolganini ko'rishimiz mumkin. Aynan ushbu hayot tarzi ularning adabiy til normalariga umuman e'tibor qilmasliklariga (adabiy til normalari haqida tushunchaga ega emasliklari ham ehtimoldan xoli emas), har qanday idora yoki jamoat joyida ham faqat so'zlashuv uslubidan

¹⁷ Diego Gambetta. The Sicilian Mafia: The Business of Private Protection. — London: «Harvard University Press», 1993.

¹⁸ Yunoncha "dialectos" – gapirish, tushuntirish. Bir til bilan bog'langan odamlarning o'zaro muloqot vositasi sifatida ishlatiladigan til.

¹⁹ Марио Пьюзо. Чўқинтирган ота. — Тошкент, 2014.

foydalanishlariga zamin yaratgan. Nutq jarayonida adresantlarning dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy sa'viyasi, atrofdagilar bilan munosabati ro'yobga chiqadi. Bu guruh vakillarining nutqida ko'pincha varvarizmlar: rus tiliga oid bo'lgan: *отдых* — “*Bugun oddix bo'lsa, shoshib qayoqqa ham borasiz*” (I kitob, 51-b.); *черный пояс* — “*Men o'zi... “ch'pnyy poystan.*” (II kitob, 381-b.); *шоколад* — “*Gap yo'q, shikalad.*” (II kitob, 385-b.) *брат* — uka so'zining erkanlash-kichraytirish formasi “*Kalla pishdimi, bratuuuka?*”; *отвечать* — javob bermoq “*Lekin haddingizdan oshsangiz , otvechayt qilasiz.*”; ba'zan esa inglizcha atamalar ham ko'zimiz tushishi mumkin: Boss- boshliq, ho'jayin “*Bo'ssning gapi bor ekan, - dedi Shomil.*”; no problem-muammo yo'q “*Chuvrindi “Doktor Xudoyorning O'zbeksitonga kelishi uchun ruhsat olish masalasini hal etish mumkinmi?” deganda “No problem”, deb gapini kalta qildi.*” (III kitob, 518-b.). Ushbu misollardan ko'rinadiki, chetdan kirib kelgan so'zlarning talaffuzida ham mafiya a'zolari nutqida ba'zi buzilishlar, aksent (lotincha, “urg'u” ona tilidan boshqa tilda so'zlashgandagi o'zgalik xususiyatlari)²⁰da gapirish holatlari mavjud bo'ladi. Shuningdek, ushbu guruh a'zolari asosan yigitlarni tashkil etgani uchun ham ular nutqida ko'pincha vulgarizm (disfemistik ifoda)larni uchratishimiz mumkin: “*Men seni erkak deb yursam, hebbim ekansan-ku, - dedi Kesakpolvon yigitga.*” (I kitob, 349-b.); “*Qon chiqmaydigan joyiga ur. Kaltakdan qo'rqadi u xunasa!*” (I kitob, 348-b.); “*Xe, seni xudojo'y qilib tuqqanni...*”.

Aytish joizki, mafiya – yashirin jinoiy guruh, shuning uchun ham ular nutqida ko'plab argolarni kuzatish tabiiy. Fikrimizni dalillash uchun “Shayatanat” asaridan ayrim misollarni keltiramiz:

- Kusok- mingta. “*Ertaga beshtagina kusok tayyorlab qo'ysinla.*” (I-kitob, 74-b);
- Ment- militsiya hodimi: “*U bir paytlar ment bo'lgan.*” (II kitob, 383-b.);

²⁰ УТИЛ,- М., «Рус тили», 1981, 37-б.

- Duoyi salom – pul: *“Duoyi salomni oldingmi, endi o’chir ovozingni...”*
- Shimo-o’g’irlash: *“Hoynahoy, sizning moshinangizni ham shimo qilishgandir.”*;
- Soqqa- pul; *“O’zi o’g’irlab, soqqasini olib, qaytarib berdi, deyishadi.”*;
- Kozir – najotkor, ishongan kishi: *“Seni xatoying – chechenni kozir deb bilganing!”*.
- Kurort – qamoqxona; *“Kurortdaligingda yuvvoshgina bola eding.”* (III-kitob, 676-b.)
- Fas – taslim bo’lish: *“Bo’pti, men fas!”*. (II kitob, 447-b.).

Yuqorida ta’kidlanganidek, mafiya – yashirin guruh bo’lgani uchun ham ular orasida bir-birini nominativ vazifa bajaruvchi laqab va taxalluslar, maxsus sifatlar bilan atash odatiy holdir:

“Men Shilimshiqni jazolashim zarur edi.”

“Sen bu o’yinda ikkita xatoga yo’l qo’yding. Birinchisi – akademikni “tuz” deb bilding.”

“Bo’tqa, tushundingmi aytganimni qil. Otarchi kelmadimi?”

“O’qilon g’irromlik qilmaydi.”

“Bo’ydoq olib keldi, kutib o’tiribdi.”

Uyushgan guruh a’zolari uchungina ma’lum bo’lgan sleng²¹larni ham uchratishimiz mumkin: *“Endi osh suzishing qiyin. Bir marta, bor ana, ikki marta suzarsan. Uchinchisida o’zingni suzib qo’yishadi.”* (I-k, 67-b)

Ushbu jumlaning mazmunini quyidagicha talqin etiladi : “ Endi qasos olishing qiyin, bir marta, yoki ikki marta olarsan uchinchisida o’zlari seni

²¹ Inglizcha “slang”-turli xil odamlar guruhida ishlatiladigan so’zlarning maxsus to’plamlari yoki mavjud bo’lgan so’zlarning yangi ma’nolari.

o'ldirib yuborishadi". *"O'ldirish"* fe'lining salbiy ottenkalari ushbu asarda va umuman jinoyatchilar tilida qo'llanilishini yuqorida keltirib o'tgan edik, e'tiborli tomoni shundaki, jamiyatning barcha a'zolari ehtiyotkorlik bilan tiliga chiqaruvchi ushbu so'z mafiya a'zolari nutqida o'ta sovuqqonlik, e'tiborsizlik va mehirsizlik bilan talaffuz etilishi kuzatiladi:

"Og'ir bo'lsa - o'ladi, qaytaga yaxshi, qutuladi, - dedi Kesakpolvon yumshoq o'rindiqa yastanib o'tirib. – Men bo'lganimda, bunaqa onani zaxar berib bo'lsa ham allaqachon o'ldirib yuborardim. Mahmuding g'irt ahmoq, o'sha shiltani "onam" deb yuribdi. O'lmasa, yana yuradi. O'lgani yaxshi-da. (II kitob, 442-b.).

"Ular tayyor, prokuror ozgina kavlashtirsin, birdan ro'para qilsak, xitlanishadi" – jumlasimdan "Prokuror yana ozgina tergov-surishtiruv ishlarini olib borsin, darrov ularni ro'para qilsak shubhalanishi mumkin" — degan mazmunni anglashimiz mumkin.

"Sharif qurug'idan tortayotgan emish". Qurug'idan tortish – narkotik moddalarni iste'mol qilish ma'nosini anglatib, ba'zi o'rinlarda *"ninaga o'tkazish"*, *"odam qilib qo'yish"* kabi ifodalar bilan ham ataladi.

"Bo'tqa sendaqalarni o'ntasini sixga terib qo'yadi." gapida esa urish, mag'lub etish ma'nolari anglanadi.

Ko'pincha oqibati yomon bo'luvchi ishlarga nisbatan "latta isi kelmoq" slengini qo'llaganlar: *"Katta ketma. Isi chiqmasin. Namoz o'qishlari shart emas, ammo hammasining og'zini tikib chiqasan."* (III kitob, 613-b.).

Mafiya sardorlari nutqidagi og'ir-bosiqlik, qisqa va lo'ndalik, g'azab otiga mingan paytda ko'pincha so'kinish, ba'zan jahli chiqqanda ham past va bosiq ovozda, ba'zan piching, kinoya yoki aybdor kimsani sizlab gapirish, ular qo'l ostidagi kishilar nutqida esa kamgaplik, hissiyotlarga berilmagan holda beparvo so'zlash (hatto o'limga hukm etilganda ham) ushbu guruhga xos jihatdir. Mafiya a'zolari bir-birlari bilan doim ham do'stona munosabat bo'lmasligi, o'zaro

uchrashuvlarda ham ba'zi bir tilga olinmas so'zlarning yoki harakatlarning ko'z harakatlari orqali ifoda etilishini ushbu asar bilan tanishgach guvohi bo'lamiz:

“ Asadbek Chuvrindi bilan ko'z urishtirib oldi. Nigohlarning bu uchrashuvi qanday ma'no anglatishini uqqanday mehmon ostonada to'xtab orqasiga o'girildi-da:

-Qardosh, orqamdan odam qo'yishni o'ylama. Biz ko'pchilikmiz,-dedi.” (III k 718-b.) .

Shuningdek, bir-birlariga xos xususiyatlarni o'rtaga qo'ygan holda so'z o'yinlari orqali ham suhbat olib borishlarini ko'rishimiz mumkin:

“...- Hosilning men bilan gap talashishi uchun yana ellik qovun pishig'i bor. U mening oldimda kim, bilasanmi? U – bir laycha!

- O', go'zal! –dedi mehmon barmog'ini qarsillatib. –Juda go'zal! Hosil –laycha. Asadbek – o'q ilon. Xongireyga aytib qo'yishim shart. Qardosh, sen ayt, agar laycha akillab g'ashini keltirsa, o'q ilon chaqib o'ldirishi mumkinmi?

- Agar o'q ilon chuvalchang zotidan bo'lsa, chaqadi. Haqiqiy o'q ilon bunaqa past ketmaydi.” (III kitob 718-b.).

Mafyalar faoliyatida ayollarni o'rtaga qo'yish, ayollar bilan savdo qilish eng tuban ish sifatida qaralib, bunday faoliyat bilan shug'ullanishni mafiya a'zolari o'zlari uchun or deb biladilar. Ayollar bilan bog'liq ishga qo'shilgani uchun Hosilboyvachchaga Chuvrindi (Mahmud)ning telefon orqali aytgan quyidagi so'zlaridagi achchiq kinoyani faqatgina shu guruh qonunlari ayon bo'lgan kishilargina tushunadilar:

“Boy, jensovetga rais bo'lgan emishsan, muborak bo'lsin, suyunchisi bizdan”.

Asarda yozuvchi faqat jinoyat olami, ya'ni shaytanat olami kishilari uchun xos bo'lgan aqida, printsip, qoidalarni ham keltirib o'tgan-ki, bu esa kitobxonga asarni o'qib turib, beixtiyor obrazlar tutayotgan yo'lni, ular chiqarayotgan qaror mazmuni va uning oqibatini ko'ra olish imkonini bergan deb ayta olamiz.

Quyida jinoyat olami kishilari uchun xos bo'lgan printsiplardan bir qanchasini keltiramiz:

- ❖ *“Asadbek bu maqolni bilmas edi, ammo u “Senga zulm qilsalar, sen o'n karra zulm bilan jabon qaytar”, degan o'z aqiydasiga sodiq holda yashardi.”;*
- ❖ *“Qasossiz ketsam, yotqizib ko'ma olmaysan, go'rimda tik turaman” degani shunchaki oddiy gap emas, qalb nidosi edi. (III kitob, 600-b);*
- ❖ *“Ikki kishi o'rniga bitta odam o'tirgani durust emasmi?” (III kitob. 615-b);*
- ❖ *“Fima yashaydigan olam bu hikmatlarni bilmaydi, ularning hukmi boshqa: “Aytgan gaping uchun javob ber!” (V kitob, 648-b.);*
- ❖ *“Gap o'ldirishda emas, gap rohatlanishda!” (V kitob, 405-b.).*
- ❖ *“Yo'llari xatarli edi. Cho'qqiga yakka-yolg'iz yeta olmasliklarini bilar edilar. Shu sababli bir-birlarini himoya qiluvchi arqon bilan bog'lagan edilar. Ular bu arqonni do'stlikning temir zanjiri deb faraz qilardilar. Ammo birovlarini toyib, bu arqonga osilsa-yu, ikkinchisining hayoti xavf ostida qolsa, bu arqonning kesiluvi tayin edi. Chunki ular “Bir kishi o'rniga ikki kishining o'lmoqligi bema'nilikdir” dega o'zlariga xos hayot falsafasiga amal qilib yashardilar. (II kitob, 572-b.).*

Mafiyalar – jinoiy uyushgan kishilar to'plami va ularning faoliyati (korruptsiya, narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog' savdosi) qonunga zid, shu sabab ham ularga qarshi doimo hukumat tomonidan kurash olib boriladi. Shunday bo'lsa-da, mafiyalarning ildizini butunlay quritib yuborishning ya'ni ular faoliyatiga butunlay chek qo'yish dushvor. Mafiya – jamiyatda yashayotgan guruh ekan (garchi u jinoiy va yashirin bo'lsa-da) bunday guruhga mansub kishilarning nutqini maxsus o'rganish sotsiolingvistika fani uchun qimmatli ma'lumotlar beradi. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qanday

foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Birgina "Shaytanat" asari yaratilgan davrni inobatga olsak, bugungi kunga kelib lisoniy hamjamiyatning taraqqiyoti natijasida ko'plab yangi atamalar, jumlar, maxsus kodlangan so'zlar vujudga kelganligi hamda nutqda keng qo'llanilayotgani tabiiy. Muayyan guruhlar, boshqa bir ijtimoiy qatlam uchun qo'llaniladigan sotsiolingvistik metodlar (kuzatish, anketa olish, intervyu olish)ni ushbu guruh uchun qo'llashning imkoni yo'qligi sababli, bu ishda adib va yozuvchilarimizning mafiyalar hayoti haqidagi asarlari bizga tadqiqot manbai bo'lib qolaveradi.

2.2. Asar matnida yozuvchi uslubining namoyon bo'lishi

O'zbek fantastik adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan ijodkorlardan biri Tohir Malik asarlarida badiiy til bobida o'ziga xos so'z san'atkoridir. Uning asarlari o'zbek adabiyotida yaratilgan adabiy meros orasida o'zining qiziqarliligi, hayotiyiligi, ta'sirchanligi, inson xarakterini va ruhiyatini haqqoniy gavdalantirganligi hamda turmushning murakkab muammolarini qalamga olganligi bilan ajralib turadi.

Azal-azaldan o'zbek xalqi o'zining mehmondo'stligi, yaqinlariga mehr-oqibatligi, xushmuomalaligi bilan alohida ajralib turadi. Kishilar yaqinlarining boshiga og'ir musibat tushganida ham, shodiyona yoki quvonchli kunlarida ham bir-birlarining ko'nglini ko'taruvchi, yupatuvchi, qutlov so'zlarini muloqot jarayonida keng qo'llaydilar. Ayni shu madaniy xususiyat adibning o'lmas asarida mahorat bilan ochib berilgan. Bunday so'zlar mulozamat-manzirat leksikasi, ya'ni, iltifot ifodalovchi nutqiy birliklar deyiladi. Mulozamar-manzirat ifodalovchi shakllar kishilar o'rtasidagi qarindoshlik, do'stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlar fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi.

Fatik kommunikatsiya termini ilk bor ingliz etnologi B.Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, mulozamat (manzirat) ko'rsatish funksiyasini ifodalaydi. Bu atama lotincha "gapirish" ma'nosini bildiradi, ba'zan uning o'rnida "sotsiativ" so'zi ham ishlatiladi²².

O'zbekning kundalik hayotini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur qilish qiyin, shunday ekan, T.Malik ham o'z qissasida bu hodisani mahorat bilan tasvirlab beradi. Chunki o'zbekning nutqi bunday so'zlarsiz jo'n, rasmiy, hatto, qo'pol bo'lib qoladi. Tildagi mulozamat-manzirat shakllarni ishlatilish o'rniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. So'rashish, ko'rishish va xayrlashish jarayonida ishlatiladigan mulozamat shakllari.
2. To'y-hasham, mehmondorchilik va boshqa shodiyona kunlarda ishlatiluvchi mulozamat shakllari.
3. Aza-motam yoki qayg'uli vaziyatlarda ishlatiladigan mulozamat shakllari.

Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatlarning jins jihatidan farqlanishi sodir bo'ladigan nutqiy vaziyatda yaqqol aks etadi. Jumladan, ayollar nutqini mulozamat-manzirat shakllarisiz tasavvur etish imkonsiz, chunki bunday so'zlar ayollar nutqining shirin, muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayoli bunday so'zlarga kundalik turmush tarzida deyarli doim murojaat qilib turadi. Erkaklar nutqida esa bu holat birmuncha passiv amalga oshadi. Ammo "Shaytanat" asari qahramaonlari, aksariyat, erkak jinsiga mansub bo'lganlari uchun ham bunday qat'iy fikr aytishdan yiroqmiz, sababi, erkaklar nutqida ham mulozamat-manzirat shakllari yetarlicha o'rin tutishini ko'ramiz.

So'rashish jarayoni, avvalo, salomlashishdan boshlanadi. "Shaytanat" asaridagi obrazlar salomlashishini Tohir Malik yaqqol tarzda ochib bergan:

Jamshid o'zbeklarga xos lutf bilan salom berib, "Siz falonchi akamisiz?", "Sizni falonchi akam yo'qlayaptilar" deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya

²² Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000, 56-b.

ochilib, Elchin ko`rinishi bilan”Sizni Bek akam chaqiryaptilar” dedi-yu mashinasi tomon yurdi. (I kitob, 27-b.)

Asadbek ulardan hech mahal hol-ahvol so`ramasdi. Ikki oyoqda yuribsanmi – bas,ahvoling yaxshi, derdi. Shuning barobarida birovning hol so`rashini ham yoqtirmas edi. Tobi qochib qolgan kezlari uning odatini bilmagan odam: “Tuzukmisiz?” deb so`rasa, “Ha, o`lishim kerakmidi?” degan shirin javobni eshitardi. (I-kitob, 124-b.)

Boshqa payt bo`lganida, “Azroilning qavmidan bo`lsang o`zingga, men bilan odamga o`xshab so`rash!” deb bobillab berardi. (I-kitob, 23-b.)

Asarda yana bir ahamiyatga ega obraz bo`lgan Zelixonning salomlashish nutqi quyidagi parchada namoyon bo`lgan:

Lozim bo`lgan katta idoralarga boshqa bir idora boshlig`iday bemalol kirib chiqaverardi. Eshik og`zidagi soqchiga kiborlik bilan so`z tashlab, “Ha, o`tiribsanmi?” deb kirib ketaverardi. ...Bir kuni Zelixon mashinasini kirish mumkin bo`lmagan ko`chaga burdi. Inspektor ola tayog`ini ko`targach, to`xtadi-yu, tushmadi. Qorin qo`ygan milisa yigit lapanglab kelib, engashishi bilan oynani tushirib:

- *Ha, turibsanmi? – dedi. (I-k, 67-b.)*

1. O`g`rilarga xos bo`lgan hozirjavoblik, ayyorlik, sir boy bermaslik kabi xislatlarning yaqqol namoyonini ushbu parcha orqali ilg`ash mumkin. Mafiya a`zolari o`zaro salomlashganda, ko`rishganda yoki xayrlashganda ularning nutq odobida bu ishni alohida lutf-u nazokat bilan amalga oshirishga ishtiyoqning yo`qligi erkaklar salomlashishidagi o`ziga xoslikni belgilaydi.

“Shaytanat” da faqat erkak kishilarga xos nutqiy xususiyatlar ochib berilgan, desak yanglish fikrga ega bo`lamiz, Tohir Malik ayollar nutqiga xos ko`plab o`ziga xosliklarni ham mahorat ila ochib bergan. Jumladan, to`y-hasham, mehmondorchilik, shodiyona kabi xursandchilik ruhi hukmron bo`lgan nutqiy vaziyatda ayollarning o`zlarini qanday tutishi yoki ayollarga xos tabiati qay holatda namoyon bo`lishini T.Malik “Shaytanat”da quyidagicha tasvirlagan: *Hovli etagida “oshxona” nomi bilan zikr etiluvchi bostirmaning eshigi zorlanib*

ochilib, Nasiba chiqib keldi. U eri tomon bir-ikki qadam qo'ydi. So'ng nima qilarini bilmay tosh kabi qotdi. Keyin beixtiyor ravishda yugurib kelib, Sharifni quchoqlab oldi. ... Ular ilk marta yolg'iz qolib bir-biriga aytishga so'z topolmay iymanib o'tirgan kelin-kuyovga o'xshashardi (I kitob, 83-b.) – Voy, aylanay, sizdan, egachi, tanimabmiza, Keling boshqatdan ko'rishaylik. Esonmisiz, omonmisiz... Biz o'g'irlikka keluvdig-a... (V kitob, 204-b.) Sovchilik marosimi ham yuz, balki ming yillar davomida bir qolipga tushgan. Xotinlar o'zlarini qanday tutishni, nima deyishni yaxshi biladilar. Mana hozir Manzura: “Hali tayyorgarligimiz ham yo'q”, dedi. Bu – qizimizni uzatishga rozimiz, ammo siz aytganday ertaga emas, balki indinga, degani. ... Lekin qizi bor odam noz qilmasa, “diplomatiya” qonun-qoidalari buziladi-da! Sovchilar uy sohibasining ko'nglini ko'taradigan bir-ikki gaplarni aytib, lutf ko'rgazib, o'rinlaridan jilishdi. Juvonlar biroz xijolat chekkach, biroz noz qilgan bo'lib, qog'oz xaltani olishdi. Bu ham diplomatiyaning bir qoidasi – rozilik alomatiga ishora. Ertaga bu juvonlar tugun ko'tarib kelishadi. Manzura patir nonlarni olib qoladi. Oqshomda erkaklar kelishadi. (I kitob, 155-b.). Misollardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqi nutq odatida alohida olingan marosimlarda erkaklarning vazifalari, xatti-harakatlari hamda ayollarning vazifalari va har bir xatti-harakatlari izchillik bilan ishlab chiqilgan, adib aytganiday, yuz, balki ming yillar davomida shakllantirilgan. Shunday ekan, har bir jins vakillari o'z xoslik doirasidan chiqib ketmaydi.

Asarda ayollarning “quyi” toifasi hisoblanmish foxishalar nutqining ochib berilishi ham boshqa asarlarda kuzatilmagan darajada ahamiyat kasab etgan:

“Gap orasida Monika xonim faqat o'ziga xos fazilatni ham aytib o'tishni unutmadi. Men lyuboy kiyimni bir marta kir bo'lguncha kiyaman. Yuvib, dazmol qilingan kiyimning zapaxini terpet ne mogu. Eski kiyimlarimni internatga berayotuvdim, Tak kak savob ham kerak-ku, da, jonim,- deb Zaynabga murojat qildi.”

...-Xotini emasman, nega yolg'on aytasan? – dedi Valya. – O'ynashiman. O'ynash xotindan ham yaqinroq bo'ladi, shunday emasmi, Valentina Mixaylovna?

...- Xa. O'ynashim kutib turibdi. Germaniyaga boraman-u, ikki oydan keyin Parijga uchaman. Parijda yashayman!

Albatta, adib bu toifa nutqini ochib berish bilan birga o'zbek ayollariga xos ibo-hayo, andisha, uyat kabi fazilatlarga yo'g'rilgan o'zbek ayoli nutqi va kechinmalarini ham mohirona ochib bergan:

“O'ynashim kutib turibdi?” Bu gapning shu tarzda behayolik bilan aytilgani Manzurani titratib yubordi. Manzura nazoratdan o'tayotganida bu xonimchnaning bir yigit bilan quchoqlashib, o'pishib xayrlashganiga ko'zi tushgan edi. “Demak, u boyaqish eri... bu yoqda esa o'ynashi... Voy sharmanda, yo tavba...” (III-k, 587-b.).

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, asar matnida uchraydigan turli situativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

“Tilning barcha vazifalari: kommunikativ, emotiv, aloqa o'rnatish, ijtimoiy funksiyalari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi turli-tuman munosabatlarni ifodalaydi. Murojaatning mazmunan har xil shakllanishi – quvonch, ta'na, qo'rqinch, gina, iltifot, nafrat kabi ma'no ottenkalari qo'shilgan holda ifodalanishi – eng avvalo, ijtimoiy muhit va sharoitdan kelib chiqadigan munosabatga bog'liq”.²³

“Shaytanat” asarida ko'proq erkaklar ruhiy olami aks ettirilgani uchun ham asardagi erkaklar jinsiga qaratilgan murojaat shakllarini quyidagi mavzuiy guruhlarga bo'lish mumkin:

- ✓ Chaqirish: - Bek - *“Bek, esing joyidami?”* (I-kitob, 159-b.), birodar-
“Chakki qilibsiz, birodar, - dedi u.” (I-kitob, 115-b.); uka - *“Qo'y, uka, sen bu o'yinlardan uzoqroq yuraver.”* (I-kitob, 150-b.); akaxon-

²³ Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...dissert. Toshkent, 2007, 15-bet.

(okaxon) *“Xizmatdamiz, akaxon, - dedi Xumkallaatrofga bir alanglab olgach.”* (III-kitob, 610-b.); opajon- *“Endi opajon, bu masalani biz hal qilamiz.”* (III-kitob, 630-b.), inim - *“Bek inim, Ko’samullangizni o’zingiz chaqirib, “Mutavallilikni boshqa kishiga topshir” deb qo’ying.”* (III kitob, 653-b.); akaginam - *“O’, akaginam, irganmang bizdan, - dedi Kesakpolvon Jalilning gapini xazil o’rnida qabul qilib.”* (III kitob, 655-b.);

- ✓ Mensimaslik, kinoya: - san’atchi - *“Azob chekib kelgan san’atchiga himmat ko’rsatib, kuyovlik sarposini yopdi”, deymiz.”*; Sher- *“Hozir Sherni qo’yib beraman. Bir mazza qiling...”* (*mashxur hofiz Sherali Jo’rayev nazarda tutilmoqda*); Qorijon - *“E, Qorijon, shuni o’ylab yuribsizmi, kuyinmang, bunaqa gapalrga o’rganib ketganman.”*; og’aynichalish- *“Siz, og’aynichalish, faqat chaynab yutdingiz”* (I-kitob, 150-b.); bola - *“Sen menga shart qo’yma, bola!”*.
- ✓ Erkalash:- Bekjon - *“Taniyman, Bekjon o’g’lim, adangiz bilan frontovoy edik.”* (III-kitob, 541-b.); begim - *“Begim, bir qoshiq qonimdan keching, sizga noto’g’ri informatsiya berishibdi”* (I-kitob, 95-b.); opoqijon - *“Opoqijon, quvonib o’tiribsizmi”* - dedi Elchin kampirning duosini olgach...” (I-kitob, 113-b.); Hojiqori - *“E, kelsinlar, Hojiqori aka, - dedi peshvoz chiqib.”* (I-kitob, 115-b.); qoqindiq- *“Kuyunmang, qoqindiq, uch-to’rt kunda dard ko’rmaganday turib ketadilar.”* (III kitob, 673-b.); qardosh *“O’, jon qardashim, bu o’g’lung cho’x buyuk insan.”* *“...Mamatbey, qardosh, xatar deganlari sen bilan menga o’z soyamizdan ham yaqin.”* (IV kitob , 90,94-betlar).
- ✓ Neytral shakllar: - otarchi, kuyovjo’ra, boshliq, marhum, xodim, rahbar.

Mafiya a’zolarining oilada hamda uyushgan to’ dasidagi nutqida bir qancha o’zgarishlar bo’lishi tabiiy. Oilada erkakning o’z ayoliga murojaati jarayonida ishlatiluvchi birliklarni “Shaytanat” asari qahramonlari misolida tahlil qilar

ekanmiz, ularning naqadar boy manba bo'lib xizmat qilishini alohida ta'kidlashimiz o'rinli bo'ladi.

Ayolga o'z ismi orqali yoki shunchaki murojaat qilishda subyektning obyektga nisbatan quyidagi munosabati kuzatiladi:

- Chaqirish: - *Manzura, Nasib, Zaynabxon, Noilam, ayasi, onasi, oyijonisi.*
- Erkalash: - *Jonim, jonidan, azizam, malikam, asalim, go'zalim* kabi murojaat birliklarini qo'llash erkakning ayolga nisbatan yaqinligini, ijobiy emotsional munosabatini ifodalaydi.
- Mensimaslik, kinoya: - *Katta xolamning eri, ammamning buzog'i, ayol zoti, noshud, tovuqmiya* kabi shakllar kinoya ma'nosida ishlatiladi.

Ushbu matnlarda belgi-xususiyat bildiruvchi leksemalar jinsni nomlovchi *xotin* leksemasi bilan birikma hosil qilgan. Chunki ayol doim erkak jinsiga nisbatan past pog'onada turganligini adib bir qancha birliklar orqali oshkor etib turganini ilg'ash mumkin, shuning uchun ham ayolga nisbatan "*sochi uzun, aqli kalta*", "*kalta o'ylaydigan*" frazeologik birliklar doim umumiy jinsga tegishli xarakterlovchi belgi sifatida oddiy so'zlashuvda ham, badiiy matnda ham aks etib kelgan.

Adib "Shaytanat" qahramonlarining ayolga nisbatan murojaat qilish o'rinlarida juda ko'p hollarda "*hoy, ey, o'v, hay*" kabi abstrakt birliklarni qo'llagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mafiya- yashirin uyushgan guruh bo'lganligi uchun ham ular orasida bir-birlarini laqab bilan chaqirish, bir-birga maxsus laqab to'qish ham aynan "Shaytanat" asarining e'tiborli tomonlaridan biridir. Murojatda aynan nominative ma'no beruvchi laqab bilan murojat etish boshqa guruh nutqiga nisbatan (bolalar nutqida ham ko'riladi) jinoyatchilar nutqida samarali qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Har bir jinoyatchining o'ziga xos laqabi mavjud bo'lishi lozimligini quyidagi parchada ko'ramiz:

- *Laqabing nima? – deb so'radi Asadbek.*

- *“Murda”.*
- *Qayoqdan topasanlar bunaqa laqablarni. Bezbetliging uchun shunday deyishganmi?*
...- Laqabingni o'zgartir, men atrofimda murda ilakishib yurishini yoqtirmayman, - dedi.
- *O'zingiz qo'yib bera qoling.*
- *Basharangga qaragan odam surbetligingni darrov biladi.*
- *“Surbet” demoqchimisiz? Unda aytishga osonroq qilib “Sur” deb qo'ya qolaylik. Bilgan odam “Surbet” deb o'ylar, bilmagan odam “dushmanlarini yo'ldan surib tashlaydigan azamat”, der?” (V kitob, 391-b).*

Ko'rinadiki, jinoyatchilar orasida laqab berish “vakolat”i asosan o'g'riboshi, to'daboshiga beriladi. Asardagi Xongirey obraziga bunday laqab ham ustozlari “Akademik” tomonidan “taqdim” etilgan edi.

Yozuvchi asarda insonni tashqi ko'rinishi orqali farqlovchi bir qator nutqiy birliklar, formulalarni qo'llagan. Shunga tayangan holda nominativ vazifa bajaruvchi laqab va taxalluslarni quyidagi mavzuiy guruhlariga ajratish mumkin:

- Kasb-korga oid nomlar: otarchi- *“Qizimni otarchi... olib ketgan. Bu aniq!”* (I kitob, 147-b.); hofiz - *“Hofiz, olamda bormisiz, yo'qlamasak, yuz so'mlik pulday ko'rinmasdan yuraverar ekansiz-da, a?”* (I kitob, 149-b.); prokuror - *“Prokuror bola bilan pachakilashmaslik kerak.”* (II kitob, 447-b.); eng kichik ilmiy hodim - *“Avvaliga eng kichik ilmiy xodim” ni institut ostonasida ko'rib, “Ertalabdan kimni kutayotgan ekan?” deb o'ylab, ajablangan edi.”* (II kitob, 464-b.); qozi - *“Qozi”ga yaqin o'tirgach, kiyimlari yirtilib, qovog'i ko'kargan yigitga qarab, “aybdor” shu ekanini fahmladi”* (III kitob, 562-b.); tabib - *“Tabib Jalil keltirgan tilla tangani yuvib, artib, chiroqqa tutdi.”* (III kitob, 763-b.); tergovchi, muallim,

dehqon, qassob, boshqon, tabibboshi, o'g'ri, yetuk mutaxassis, kenja shogird, militsioner, qorovul. Deputat va h.k.

- Ijtimoiy mavqedan kelib chiqib qo'yilgan hammda unvonga oid nomlar: boyvachcha- *"Akaxon, bir gap: ko'chaning narigi betide boyvachchaning bollari g'imirlab yurishibdi."* (III kitob , 611-b.) qori, so'fi, hojibuva, leytenant, kapitan, mijoz, olim, rais buva.

- Ma'lum bir sifatga qarab qo'yilgan laqab va taxalluslar: Xongirey, Chuvrindi- *"Chuvrindi Xongireyning qarorini Asadbekka aytmoqqa jur'at etmadi."* (III kitob, 826-b.); Knyaz - *"Knyaz', adashma. Bu masalaga munosabatimni bilarsan devdim."* (IV kitob, 14-b.); O'qilon - *"Sen chaqmaysan-u, lekin tovondan teshib kirib, miyani o'pirib chiqib ketasan", degan xazil bila boshlangan gap oqibatida Asadbekka "O'qilon" degan nom tojini kiydirgan edi."* (IV kitob, 109-b.); akademik- *"Akademik – o'g'ri. O'g'rilikda unga teng keladiganini toposh qiyin."* (I kitob, 151-b.); Suvilon- *"Xa, "Suvilon"ing chindan ham ahmoq ekan, - dedi mayor Soliyev."*; G'ilay- *"Uning ko'chma gapini G'ilayning kalta fahmi anglab yetmadi."* (II kitob, 547-b.).

Asarda bunday usulda hosil qilingan laqab va turli "nomlar" asosan erkak jinsiga mansub qahramonlarga nisbatan ishlatiladi. Lekin ayol jinsiga mansub shaxslarning laqab va turlicha taxalluslar bilan atalishi ko'p uchramaydi. Bunday holatda ayolning ijtimoiy mavqeyi shuni so'zlovchi personajga nisbatan past ekanligini anglatib, yozuvchi bunday ma'noni erkaklar tomonidan amalga oshirgan . Masalan: *"Xe, ojiza, xayf senga, - deb ko'zlaridan g'azab uchqunlarini sochdi."* (I kitob, 56-b.); *"Men mish-mish orqalab yuradigan xotinmasman – dedi Jalil."*

Ba'zi o'rinlarda so'zlar etimologiyasiga xos ma'lumotlar va qarashlarini keltirib o'tgan : *"Sen kelsang, birov quvonmaydi, ketsang – ranjimaydi. Sen... Xudo qarg'agan qushsan... Qiziq... Qarg'a – Xudo qarg'agan qush... Qiziq... "Qarg'ish" degan so'z "Qarg'a"dan olinganmi? Xudo qarg'agan bandasiga qarg'ani ro'para qiladimi?.."* (III kitob, 724-b.).

Tohir Malikni diniy bilimlarni puxta egallagan yozuvchi sifatida ham ko'pchilik e'tirof etadi. Adibning diniy mavzuga yo'g'rilgan bir qancha didaktik asarlari ham borligini bilamiz. "Shaytanat" asarida ham adib o'zining diniy bilimlarini oshkor etib, voqealar tafsilotiga, qahramonlar holatiga mos ravishda Qur'on yoki Hadisi-sharifdan ko'plab namularni keltirib, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. Ko'pincha bunday namunalar diniy bilimga ega qahramonlar tilidan, ba'zan muallif qilidan berilganining guvohi bo'lamiz:

"Johil banda... Yaratganning "Yaa bani Adama! Iza roaytal-g'ina muqbilan a'layka faqul zambun a'jilatun uqubatuxu" (ma'nosi, "Ey Odam farzandi! Agar senga boylik kelayotganini sezsang, bilginki, azob-uqubati va jazosi naqd bo'lgan gunoh kelayotir", Qudsiy hadisdan.) deb ogohlantirganini bilmasa, kim aybdor?"

Qahramonlar tilidan esa, ko'pincha Abdurahmon tabib, Muhiddin ota, Doktor Xudoyor, Afruza kabi obrazlar tilidan Qur'on suralari va Hadisdan namunalar keltirilgan.

"Al-birru laa yublaa, vaz-zanbu laa yunsaa, ad-Dayyaanu laa yamuut. I'mal maa shi'ta, kamaa tadiynu tu'danu" (ma'nosi: "Yaxshilik eskirmaydi, gunoh unutilmaydi, Alloh taolo o'lmaydi. Endi nima qilsang qilaver. Amalingga yarasha jazo olasan." (Hadisi sharifdan).) , - dedi Abdurahmon tabib ma'noli ohangda".

Ayniqsa, xulosa hamda so'roq tarzida keltirgan jumla so'ngida *"vallohu a'lam"*²⁴ birligini juda ko'p o'rinda qo'llaganini ko'ramiz: *"Solih bandalar savoblarinig hisobidan chiroyli mukofotga ega chiqib, quvonayotgan lahzalarda bular "Kimning gunohi o'girroq" deb tarozu talashayotgan bo'larmikinlar, vallohu a'lam! (V kitob, 654-b.).*

Adib bo'layotgan voqea-hodisalarni shunchaki so'zlovchi, tasvirlovchi muallif emas, shu hodisalardan xulosa qilishga undayotgan ustoz kabi ko'rinadi asarda. Jumladan, bo'lib o'tayotgan hodisalarga o'zi savol bergan holda javobni ham "begona" qilmaydi: *"Keyin nima qiladi? Qayga boradi? Ishxonasiga*

²⁴ Vallohu a'lam— arabcha: xudo biluvchandir demakdir

keladi. Birov “Bilmayman”, deydi, birov “Falonchiga uchrang”, deydi. ...Xotini ishonadimi? Yo’q ishonmaydi.” (III kitob, 795-b.).

Tohir Malikni mohir so’z san’atkori sifatida bilamiz ekan, uning til qo’llay olish, kitobxonda ma’lum ekspressiv, estetik zavq uyg’ota olish mahoratiga tan bermay iloj yo’qligini ushbu asar orqali ham ko’rishimiz mumkin. Zero, so’nggi yillarda internet manbalar va ijtimoiy tarmoqlarda o’tkazilayotgan turli so’rovnomalar, statistik ma’lumotlar orqali “Shaytanat” asarining eng ko’p mutolaa qilinayotgan asarlar ro’yxatida eng oldingi saflarda turganligining yana bir sabablaridan biri sifatida - adibning o’ziga xos tili ekanligini bimalol takidlashimiz mumkin.

Umumiy xulosalar

Bitiruv malakaviy ish tadqiqot natijalari quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Badiiy adabiyot o'zining imkonoyatlari cheksizligi bilan ham katta ahamiyat kasib etadi. Chunki badiiy asarda tilning bor imkoniyatlaridan ochiq va ijodiy foydalanish, asarda tasvirni jonli, ta'sirli tarzda ifodalash hamda hissiy-ekspressiv bo'yoqdorlikni oshirish mumkin bo'ladi. Har bir asarning badiiy qiymatini belgilashda til, albatta, muhim ahamiyat kasib etadi. Badiiy asarning til xususiyatlarining yoki badiiy tasvir ifoda vositalarini o'rganishda faqat tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganib bo'lmaydi. Har bir asarning sotsiolingvistik tilini o'rganishda til va jamiyat o'zaro bir-biridan uzilmagan holatda ya'ni bir-biriga bog'liq holda o'rganishni taqozo qiladi.
2. Badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun uning leksikasi va grammatikasini bilishdan tashqari, badiiy matnning o'ziga xos lisoniy – poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim. Ma'lum bir so'z san'atkorining asarda g'oyaviy – estetik vazifani ta'minlash yo'lidagi tilning boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi individual mahorati lingvopoetik tahlilga qiziqishni oshiradi.
3. Tohir Malik o'z asarlarida o'zbek tilining estetik vazifalarini nechog'lik mukammal bajara olishini isbotlagan. Ijodkor asarlarida badiiy tasvir ifoda vositalarni qo'llaganki, bu yozuvchining tilimizdagi bor imkoniyatlardan nechog'lik foydalana olishini ko'rsatib beradi.
4. Tohir Malik asarlarining badiiyligini oshirishda fonetik va fonografik vositalarning o'rni beqiyos. Bu vositalar orqali yozuvchi asar qahramonlarining ichki his-tuyg'ularini, voqelikka bo'lgan sub'ektiv munosabatlarini ifodalashda keng foydalangan.
5. Tohir Malikning "Shaytanat" romani jinoyatchilar olami haqida hikoya qilganligi uchun ham unda turli xil tabaqa va guruh vakillari bo'lishi tabiiy. Shunday ekan ijodkor asarlarida argo hamda jargonni so'zlarini

mahorat bilan qo'llagani aniq. Ijodkor asarlarida shunday argo va jargon so'zlarni qo'llaganki, bunday so'z va iboralar asarning jonli chiqishiga yordam bergan. Bunday vositalar hissiy ekspressiv ta'sirchanlik kuchini oshira olgan.

6. O'zbek tili oddiy xalq so'zlashuv tili turli-tuman bo'lib har bir hududning o'ziga xos jonli so'zlashuv tili bor. Asarda voqealar, asosan, Toshkent hududlarida kechadi va shuning uchun ham asarlarda Toshkent shevasi ko'p uchraydi. Ba'zi bir o'rinlarda Farg'ona shevasini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor sheva so'zlarini qo'llash orqali mahalliy xalq koloritini ochib bera olgan.
7. Yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi.
8. Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi qo'pol so'zlarda o'ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko'rinib turadi. Bunday so'zlar ko'proq nominativ ma'nolariga ko'ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi. Ma'lumki, jamiyatning o'ziga xos qatlami bo'lmish mafiya a'zolari, qimorbozlar, o'g'rilar, fohishalar hamda shu kabi ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar bilan munosabatga kirishuvchi qonun himoyachilari va boshqa insonlar nutqida shunday so'zlarning iste'molda bo'lishi kuzatiladi. Tohir Malik asarlarining ko'pchiligi ayni shu mavzularga bag'ishlangani uchun ham bunday qo'pol, haqoratli va salbiy ma'no bo'yoqdorligiga ega so'zlar, ayniqsa, erkaklar nutqida ko'plab uchraydi.
9. Muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi noma'lum, notanish, tushunarsiz yoki kam tushunarli bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Agnonimlar lingvosentrik emas, balki antroposentrik hodisa hisoblanadi. Ya'ni, buni tildan foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog'liq hodisa deb qabul qilish

mumkin. Bunday agnonimlarni asar matnida ko`plab uchratish mumkin. Asosan, o`g`irlik va qimorbozlik, giyohvandlik va noqonuniy olamga ilk bor duch kelgan erkak jinsiga mansub qahramonlar nutqida kuzatiladi.

10. Argo va jargon so'zlar tilning iste'mol doirasi chegaralangan leksikaga kirsam ham o'zbek tilini boyitishda ularning qaysidir tomondan ahamiyati muhim.
11. Argo va jargon so'zlar bizga asarni o'qish yoki o'rganish jarayonida asar qahramonlarining qaysi tuzum, davr guruh yoki tabaqa vakili ekanligini aniqlashimizda yordam beradi.
12. Tohir Malik asarlarida ta'sirchanlikni ta'minlashning sintaktik vositalari bo'lgan sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, farqlash, o'xshatish kabi hodisalar yordamida ekspressivlik yuzaga keladi
13. Sotsiolingvistika haqida fikr yuritish qaysidir ma'noda til va jamiyat bilan bog'liq tushunchalarni nazariy jihatdan tekshirish va o'rganishni taqozo etadi. Bunda, shubhasiz, til va jamiyat o'rtasidagi turli xil munosabatlar uzviy mushtaraklik kasb etadi. Xulosa shuki, til va jamiyat o'rtasidagi ana shu aloqadorlik sotsiolingvistikani yaxlit tizimga ega bo'lgan fan sifatidagi imkoniyatlarini belgilaydi.
14. Tilshunoslik xususan, sotsiolingvistika yangi davrga yuz tutmoqda. Kelajakda biz tilshunoslar, jamiyatshunoslar va til tarixchilarining hamkorlikda sotsiolingvistika sohasidagi tadqiqot natijalarini, yutuqlarini ko'rishga umid qilamiz.
15. Tohir Malik asarlarini lingvistik jihatdan o'rganish badiiy matnni o'rganish yuzasidan olib borilayotgan har qanday ilmiy tadqiqot uchun qiziqarli va keng imkoniyatli asar sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi o'quvchi hukmiga taqdim etayotgan o'nlab asarlar nafaqat adabiyot fani uchun, balki tilshunoslik uchun ham qiziqarli tahlil ob'ekti bo'lib qolishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент.: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. — Тошкент.: Ўзбекистон, 2016.
3. Мизийёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан курамиз. — Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
4. Бондалетов Б.Д. Сотсиальная лингвистика. М., 1987
5. Тоҳир Малик. Шайтанат. — Тошкент.: Nilol-nashr, 2017.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — М., 1981.
7. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. — Т. 1987.
8. Diego Gambetta. The Sicilian Mafia: The Business of Private Protection. — London: «Harvard University Press», 1993.
9. Марио Пьюзо. Чўқинтирган ота. — Тошкент., 2014.
10. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, «Советская энциклопедия», 1969.
11. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug`ati.—Toshkent, 2002.
12. Зильберман Л.И. Структурно — семантический анализ текста. — М., 1982.
13. Мамажонов А. Текст lingvistikasi. — Toshkent, 1989.
14. Купина И.А. Лингвистический анализ художественного текста. — М., 1980.
15. Николаева Т. Лингвистика текста // Лингвистический энциклопедический словарь. — М., 1990.
16. с.
17. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o`zbek tili. 1-qism.— Toshkent: O`qituvchi, 1980.
18. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. — Toshkent, O'qituvchi, 1983.
19. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. — Samarqand, 2003.
20. Nurmonov A. Tanlangan asarlar II jild. Toshkent, 2012.
21. Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Samarqand, 2006.
22. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.dokt.diss. Toshkent.- 2000.
23. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nom...diss. Toshkent, 2007.
24. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi, Toshkent, 1975.

25. Abdupattoyev M. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol.fan.nom. ...diss.avtoref. – T., 1998.
26. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik talqini. Filol.fan.dokt...disser.avtoreferati – Toshkent, 2001.
27. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. Filol.fan.nom...disser. avtoreferati. - Toshkent, 1994.
28. Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar // Xalqaro ilmiy – nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand, 1999.
29. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007.
30. В.Н.Телия. «Коннотативная аспект семантики номинативных единиц» - М., Наука, 1986.
31. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, Fan, 2008.
32. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
33. Yo'ldoshev B. Badiiy matnlardan frazemalarda uslubiy maqsadda foydalanish // Matn va uning lisoniy tahliliga oid tadqiqotlar, xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –Samarqand, 1999, 8 –11- betlar.
34. O'rinboyev B., Qo'ng'irov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent, 1998.